TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

# TARIX O‘QITISH METODIKASI

## Tarix fanlarining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari

## MODULI BO‘YICHA
# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**


**Tuzuvchi:** **Z.A.Ilhomov** – tarix fanlari nomzodi, professor, Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri

**Taqrizchilar:** **Sh.Shoyoqubov** – Toshkent davlat Moliya instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri, t.f.n.

**X.Matyaqubov** - Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.



***O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***

## MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR .......... 4

II. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .......... 11

III. NAZARIY MATERIALLAR .......... 29

IV. AMALIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI .......... 73

V. KEYSLAR BANKI .......... 92

VI. GLOSSARIY .......... 99

VII. FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI .......... 108

# I. IShChI DASTUR

## KIRISh

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

**Modulning vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Tarix o‘qitish metodikasi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Tarix o‘qitish metodikasi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

O‘quv moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- tarix faninning zamonaviy konsepsiyalarini;.
- Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari;.
- Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslarini;.
- tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zaruratini;.
- tarixiy bilishning o‘ziga xosligi va tamoyillarini;
- Oliy ta’lim tizimida tarix fanlarini o‘qitishning joriy holati va mavjud muammolarni;
- tarix fanining malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlari mazmunini;
- tarix fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlarini;
- tarix fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlarini;
- tarix fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi mazmuni va mohiyatini;
- tarix fanlariga oid mustaqil ta’lim turlarini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari,tamoyillari va mezonlarini;
- tarix fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat va baholashning mazmunini;
- nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalarini ***bilishi*** kerak.

**Tinglovchi:**

– Tarix fanining zamonaviy nazariy qarashlari va yetakchi konsepsiyalarini;
– Tarix fanning yordamchi fan sohalari;
– Fanning moddiy va yozma manbalari;
– fanning ta’limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;
– fanning rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari;
– oliy ta’lim tizimida tarix ta’limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni;
– zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlaridan foydalanish;.
– tarixiy manbalar va tarixiy dalillarni tahlil qila olish;.

– dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlardan foydalanish;.
– zamonaviy tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv masalalarini qo‘llash;.
– davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalaridan keng foydalanish;.
– O‘zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari va tadqiqotlarning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish;
– tarix  fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlarini tanlash;
– innovatsion yondauv asosida tarix fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil eta olish;
– kreativ yondashuv asosida tarix fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish;
– tarix  fanlariga oid mustaqil ta’lim turlaridan foydalanish;.
– nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalarini tanlash ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

– ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta’minlash;
– ijodiy fikrlash va izlanuvchanlikka yo‘naltirish;
– O‘zbek davlatchiligi tarixi tarixshunoslik tadqiqotlarining dolzarb masalalarini tahlil qilish;
– Amir Temur va temuriylar davlati tarixiga oid tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlaridan o‘qitish jarayonida foydalanish;
– Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida XVI-XX asr boshlari davlatchilik jarayonlarining tahlil qilish;
– kompetensiyaviy yondashuv asosida tarix fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni loyihalay olish;
– tarix fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

**Tinglovchi:**

– Tarix fanining zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyalarini pedagogik faoliyatda qo‘llay olish;
– O‘zbek xonliklari davri davlatchilik jarayonlari tarixining manbashunoslik masalalaridan keng foydalanish;
– XX asr tadqiqotlarida davlatchilik tarixining o‘rganish prinsiplari va zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlaridan amaliyotda keng foydalanish;
– kreativ yondasv asosida mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish;
– tarix  fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va o‘tkazish;
– tarix fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat va baholash mezonlarini ishlab chiqish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Tarix o‘qtish metodikasi” yo‘nalishi bo‘yicha ma’ruza va amaliy

mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“**Tarix fanining nazariy masalalari va zamonaviy konsepsiyalari”** moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Tarix fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar kabi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

## Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tarix fanining zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | O‘quv moduli nomi | Umumiy soat | jumladan | |
|---|---|---|---|---|
| | | | nazariy | amaliy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| 1 | Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari | 4 | 2 | 2 |
| 2 | Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari. | 2 | 2 | |
| 3 | Tarixiy bilishning o‘ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari | 4 | 2 | 2 |
| 4 | Tarixiy manbalar va tarixiy dalil. Dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlar | 4 | 2 | 2 |
| 5 | Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalari. | 2 | 2 | |
| 6 | Zamonaviy tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv masalalari | 2 | | 2 |
| 7 | Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tadqiqotlari. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari | 2 | | 2 |
| 8 | Zamonaviy tarix fanida O‘zbekistonning XIX-XX asr boshlari tarixi talqini va tadqiqotlarining dolzarb masalalari. | 2 | | 2 |
| | **JAMI** | **22** | **10** | **12** |

## NAZARIY MAShG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-Mavzu: Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari.**

Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari. Maqsad va vazifalari. Tarix fani konsepsiyasi. Tarixiy bilimlar. Tarixiy konsepsiyaga baho berish. Zamonaviy tarix fani. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishining ayrim konseptual masalalari.

**2-mavzu. Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari.**

Zamonaviy tarix ta’limi. Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari. Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari

**3-mavzu. Tarixiy bilishning o‘ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari**

Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o‘zaro bog‘liqligi. Bilishning retrospektiv xarakteri. Ikki karra sub’ektlangan bilim. Tarix fanining kompleks

xarakterliligi. Bilish tamoyillari va ularning regulyativ funksiyalari. Sababiylik tamoyili (Determinizm tamoyili). Xolislik (ob'ektivlik) tamoyili. Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar. Tarixiylik tamoyili. Tizimlilik tamoyili.

**4-mavzu. Tarixiy manbalar va tarixiy dalil. Dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlar.**

Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot. Belgilangan va belgilanmagan axborot. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi. Tarixiy dalil va uning interpritatsiyasi. Dalil. Tushuncha to‘g‘risidagi bahslar. Tarixiy dalil tizimi, tarixga ta'sir etish omillari va mohiyati.

**5 - Mavzu: Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalari.**

Davlatchilik tushunchasi va belgilari. Davlatchilikning shakllanishi: sivilizatsion yondashuv. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlarning tipologiyasi.

## AMALIY MAShG‘ULOT MAZMUNI

**1-amaliy mashg‘ulot:**

**Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari.**

Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari. Maqsad va vazifalari. Tarix fani konsepsiyasi. Tarixiy bilimlar. Tarixiy konsepsiyaga baho berish. Zamonaviy tarix fani. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Oliy ta'lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishining ayrim konseptual masalalari.

**2-amaliy mashg‘ulot:**

**Tarixiy manbalar va tarixiy dalil. Dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlar.**

Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot. Belgilangan va belgilanmagan axborot. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi. Tarixiy dalil va uning interpritatsiyasi. Dalil. Tushuncha to‘g‘risidagi bahslar. Tarixiy dalil tizimi, tarixga ta'sir etish omillari va mohiyati.

**3-amaliy mashg‘ulot:**

**O‘zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari va tadqiqotlarning zamonaviy konsepsiyalari.**

O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari.

**4-amaliy mashg‘ulot:**

**Zamonaviy tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv masalalari**

Tarixning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabatlari-ijtimoiy va gumanitar fan davriy jarayoni. Tarix va jamiyatshunoslik. Yangi ijtimoiy tarix. Tarix va psixologiya. Madaniy antropologiya. Tarix va adabiyot. tilshunoslik. Semiotika va tarix. Tarix va tabiiy fanlar. Sinergetika, tartibsizlik nazariyasi.

**5-amaliy mashg‘ulot:**

**Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tadqiqotlari. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida**

Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tahlillari. Sharq tarixnavisligining o‘ziga xos xususiyatlari. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida

**6-amaliy mashg‘ulot:**

**Zamonaviy tarix fanida O‘zbekistonning XIX-XX asr boshlari tarixi talqini va tadqiqotlarining dolzarb masalalari.**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va uning zamonaviy talqini. Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi. Jadidchilik harakati, jadidlarning madaniy va maorif hamda siyosiy sohalardagi faoliyati. XIX-XX asr boshlarida o‘zbek xalqining intellektual-madaniy merosin o‘rganish masalalari

## O‘QITISh ShAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.



## “Кичик гуруҳларда ишлаш” методи

**“KIChIK GURUHLARDA IShLASh” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki

ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.




**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI –** aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.




Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.

**Муаммоли савол ташланади**

↓

**Турли фикрлар тингланади**

↓

**Фикр-ғоялар тўпланади**

↓

**Таҳлил қилинади**

↓

**Аниқ ва мақбул ечимни топиш**

**Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



## "ФСМУ" методи

**“FSMU”**–(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda

kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

| | |
|---|---|
| **Ф** | • фикрингизни баён этинг |
| **С** | • фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг |
| **М** | • кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг |
| **У** | • фикрингизни умумлаштиринг |

**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “Tarix fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



# "ХУЛОСАЛАШ" (Резюме, Веер) методи

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Методни амалга ошириш тартиби:**



Иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



Машғулотнинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни тарқатади;



Ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



Нвбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, ўқитувчи томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва мавзу якунланади.

**Namuna:**

| Tarix fanidan Davlat ta’lim standarti | | | |
|---|---|---|---|
| **Sobiq standart** | | **Yangi standart** | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi |
| | | | |
| **Xulosa:** | | | |



# “SWOT-таҳлил” методи

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|---|---|
| **S – (strength)** | • кучли томонлари |
| **W – (weakness)** | • заиф, кучсиз томонлари |
| **O – (opportunity)** | • имкониятлари |
| **T – (threat)** | • тўсиқлар |

**Namuna:** Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | | |
|---|---|---|
| **S** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari | |
| **W** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari | |
| **O** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki) | |
| **T** | To‘siqlar (tashqi) | |

**Namuna:** An’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

| | | |
|---|---|---|
| **S** | Oddiy darsda o‘qituvchi, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera olmaydi | Zamonaviy darsda kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi |
| **W** | O‘qituvchi asosan a’lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi | Zamonaviy ta’limda darsda ko‘p sonli tinglovchilar qamrab olinadi |
| **O** | Oddiy darsda faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi | Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tug‘ilishi mumkin |

| | | |
|---|---|---|
| **T** | O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati | Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari |



# "Инсерт" методи

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| Belgilar | 1-matn | 2-matn | 3-matn |
|---|---|---|---|
| “V” – tanish ma’lumot. | | | |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak. | | | |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik. | | | |
| “–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman? | | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



# “Пинборд” методи

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga

oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

**Madaniyat**

| **moddiy madaniyat** | **ma’naviy madaniyat** |
|---|---|
| | |
| | |



## “Концептуал жадвал” методи

Konseptual jadval metodi - turli g‘oyalarni, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

Ўқитувчи ечими топилиши лозим бўлган  мавзу (масала)ни аниқлайди

Тингловчилар мавзу  ва методдан фойдаланиш қоидаси билан таништирилади

Тингловчилар кичик гуруҳларга бириктирилади

Гуруҳлар ўзларига берилган топшириқни бажаради

Гуруҳлар ечимни гуруҳ жамоаси ҳукмига ҳавола этади

Гуруҳларнинг ечимлари гуруҳ жамоасида муҳокама қилинади

| **O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar** | **Muhim belgilar, tavsiflar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi (tavsif)** |
| 1-jihat | | | |
| 2-jihat | | | |
| ... | | | |

**Namuna:**

| **Tarix darslarida interfaol ta’lim usullaridan foydalanishning jihatlari** | **Muhim belgilar, tavsiflar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi (tavsif)** |
| “Assesment” | | | |
| “Insert” | | | |
| “Tushunchalar” | | | |
| “Brifing” | | | |
| “Bahs-munozara” | | | |
| “Muammoli vaziyat” | | | |
| | | | |



# "Тушунчалар" методи

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu

buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

| Tushunchalar | Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi? | Qo‘shimcha ma’lumot |
|---|---|---|
| Tarixiy manba | | |
| Tarixiy adabiyot | | |
| Tarixiy hujjat | | |
| Tarixiy xarita | | |
| Tarixiy surat | | |
| Tarixiy fonogramma | | |
| Tarixiy xat | | |
| Tarixiy makon | | |

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### “Muammoli vaziyat” metodi

**“Muammoli vaziyat” metodi -** ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



## "Т-жадвал" технология

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo‘shilsalar, birinchi ustunda “+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo‘yadilar.

**Izoh: O‘qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi

**“T-jadval” texnologiyasi**

| **O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)** | |
|---|---|
| + **(ha, ijobiy)** afzalligi (yutug‘i) | **- (yo‘q, salbiy)** kamchiligi |
| 1. | 1. |
| 2. | 2. |
| ... | ... |

**“Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”**

| **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
|---|---|
| “Qaytar aloqa”ning ta’minlanishi | ko‘p vaqt talab etilishi |
| motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi | tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi |
| o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi | ob’ektiv baholashning qiyinligi |
| muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi | o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi |
| o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi | ijodiy shovqin bo‘lishi |
| mustaqil fikrlash qobiliyatiningoshishi | qaytar aloqaning ta’minlanmasligi |
| **XULOSA** | |

***T-sxema ko‘rinishida vazifa***

| **Ha** | **Fikr-mulohazalar** | **Yo‘q** |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| | O‘zbekistonda "Tashselmash", “O‘zbekselmash”, “Krasniy dvigatel”, “Pod’emnik” va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi. | |
| | 1950 yil O‘zbekistonda 2.220 ming tonna paxta tayyorlandi. | |
| | Sug‘orish ishlarini yaxshilash uchun sun’iy suv omborlari qurildi. | |
| | XX asrining eng yirik ekologik - “Orol fojeasi” vujudga keldi. | |
| | O‘zbekiston mamlakati paxta xom-ashyo bazasiga aylantirildi. | |
| | O‘zbekiston “Oq-oltin”dan katta manfat ko‘rardi. | |



# “Блиц-ўйин технологияси”

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar –** 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning o‘rtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.

**Tarixiy voqealar –** Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo‘lindi, Konstantinopol, YustinianI imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo‘natdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yo‘l ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qo‘ldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga ko‘plab yer-mulklar in’om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil o‘rnatilishiga olib keldi.

| Yil, sana | Sodir bo‘lgan voqelik |
|---|---|
| | |

**“Venn diagrammasi” strategiyasi**

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



# “Ҳамкорликда ўқитиш” методи

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:

**1.** Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko‘proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg‘ulot o‘tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo‘lsa, tinglovchilarning o‘rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o‘qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti;
- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;
- o‘rtoqlari bergan ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘shishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;
- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;
- bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

| **Guruhda ishlash qoidalari:** |
|---|
| Har kim o‘z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;<br>Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;<br>Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;<br>Har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi zarur;<br>Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.<br>- Boshqalarga yordam berib, o‘zimiz tushunamiz!<br>- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho‘kib ketamiz! |

| **Guruhda topshiriqni bajarish yo‘riqnomasi:** |
|---|
| 1. Guruh liderini saylang.<br>2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.<br>3. Topshiriqni bajaring.<br>4. Taqdimotga tayyorlaning.<br>5. Taqdimot o‘tkazing.<br>6. Guruh ishini baholang. |

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o‘rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta’lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a’zosi bir joyda bo‘lishlari va bir-birlarini ko‘rishlari va eshitishlari kerak, zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga yetarli bo‘lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

**1.** Ta’lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo‘li asosida ta’lim oluvchilarni guruhlarga bo‘ladi.

**2.** O‘quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta’lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo‘li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma’lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

**3.** O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo‘yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo‘shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta’lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta’lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o‘quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o‘quv topshiriqni bajarish bo‘yicha ishni boshlanishi haqida e’lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo‘yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo‘lgan alohida bo‘lib ishlashga, ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

**6.** Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko‘rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o‘tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to‘g‘risida xulosalar chiqaradi.

**Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarfini talab etadi.

# III. NAZARIY MATERIALLAR

## 1-Mavzu: Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari.

Reja:

1. Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari. Maqsad va vazifalari
2. Tarix fanining zamonaviy konsepsiyalari
3. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati.
4. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishining ayrim konseptual masalalari.

**Tayanch tushunchalar:** Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari. Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari. Tarixni davrlashtirish.

### 1. Modulning g‘oyaviy-nazariy asoslari. Maqsad va vazifalari

1. Tarixga kirib borayotgan bugungi har bir kun o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan o‘nlab yillarga tengdir. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda har kuni uzoq davr mobaynida to‘planib, o‘z yechimini kutib yotgan ko‘pgina muammolar hal qilinmoqda. Ayrim jabhalarda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni ijobiy yo‘nalishga burish va undan jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar qilinmoqda. Bu o‘rinda tarix fani sohasida to‘plangan masalalarni xal qilish hamda xalqning qalbi va xotirasi bo‘lmish bu qadim fanning nufuzini ko‘tarish, mas’uliyati va vazifalarini belgilab olish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlari katta ahamiyat kasb etmoqda. 1998 yildan boshlab Vatan tarixini yangicha yo‘sunda o‘rganish ishi yanada jadallashdi. Tariximizning ko‘plab muammoli masalalariga bag‘ishlangan respublika va xalqaro miqyosda ilmiy konferensiyalar o‘tkazildi. Qator ilmiy maqolalar, to‘plamlar va fundamental monografiyalar e’lon qilindi.

Bugungi tarix fanining zamonaviy muammolari va dolzarb masalalarini o‘rganish maqsadida tashkil etilgan ushbu o‘quv kursining bosh maqsadi buyuk o‘tmishimizni xolisona tarixini yanada chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Model o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra noan’anaviy bo‘lganligi sababli uning ilmiy metodik ishlanmasini yaratish chuqur tadqiqot va izlanishlarni talab etadi. Modul doirasida tanlab olingan mavzular va ular doirasi nihoyatda keng qamrovli ekanligini inobatga olib belgilangan masalalarning xolisona yechimini topish maqsadida har bir tarixiy davr va sohaning mutaxassilari bo‘lgan tarixchi arxeolog olimlar, manbashunoslar, filolog va sharqshunoslarning fundamental asarlari, monografiyalari va ilmiy maqolalaridan foydalanildi. Ba’zi o‘rinlarda mualliflik huquqiga zarracha da’vo qilmagan xolda ularning maqola va risolalari to‘laligicha haqola etildi. Modulning ichki mazmunini ilmiy jihatdan boyitishda xususan mamlakatimiz va xorijda ko‘zga ko‘ringan olimlar O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademiklari A.Asqarov, K.Shoniyozov, Yu.F.Buryakov, E.V.Rtveladze, A.Sagdullaev, tarix fanlari doktorlari R.Sulaymonov, D.Alimova va boshqalarning ilmiy va uslubiy ishlaridan keng foydalanildi.

1. Yaxlit olib qaralganda, tarixni xalq yaratadi. Uni yaratishda faol qatnashgan, xalq ruhida, ongida va qalbida o‘zlaridan chuqur va o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar ham xalq farzandlari bo‘lganliklariga asoslanib shunday xulosa qilishimiz mumkin. Shu sababli ramziy ma’noda **tarixni uni yaratgan va yaratayotgan** (tarix, xuddi vaqt singari bir zum bo‘lsa-da, to‘xtab turmaydi) x**alqning tarjimai holi** deyish mumkin. Shu boisdan qadim tarix, o‘rta asrlar tarixi, zamona tarixi kabi iboralarni ishlatamiz. Bularni jamlasak, yaxlit tarix kelib chiqadi. Har bir ota-ona o‘z farzandlaridan birontasini “Bu mening o‘g‘lim emas” yoki “Bu mening qizim

emas” deyolmaydi, desa-da bu yolg‘on bo‘ladi. Chunki ota-ona hech qachon o‘z farzandlarini inkor etolmaydi, chunki o‘zlari ularni dunyoga keltirib qo‘yganlar. Shunga o‘xshash xalq ham garchi yaxshidir, garchi yaxshi emasdir, uquvlidir, uquvsizdir bu farzandlarini inkor etolmaydi, inkor etishi mumkin ham emas. Yaxshisini olqishlaydi, yomonini qoralaydi, uquvlisidan mamnun bo‘ladi, uquvsiziga achinadi. Yaxshisini “baxtim” deydi, yomonini “peshonamning sho‘ri” deydi.

Bunday holatni o‘zbek davlatchiligini boshqarib o‘tgan sulolalar va ular har birining vakillariga nisbatan ham qiyos etish mumkin. Ma’lumki, sho‘rolar zamonida chiqarilgan kitoblarda va matbuotda o‘zbek davlatchiligini boshqargan sulolalarning bari tilga olinmas, biri tilga olinsa, ikkinchisi haqida indamay o‘tilar, birini ikkinchisiga qarama-qarshi qilib qo‘yilar, sulolalarimiz vakillari faoliyatidan faqat nuqson qidirilar, kichik nuqsonlar ham katta qilib, bo‘rttirib ko‘rsatilar edi. Nima qilib bo‘lmasin, qanday yo‘llar bilan bo‘lmasin, ishqilib o‘zbek davlatchiligi kamsitilar edi. Buxoro shahrining 2500 yilligi yubileyida (1997 yil oktyabr) bunday noxolislikka ilk bor chek qo‘yilib aytildiki, **o‘tgan ikki yarim ming yil davomida o‘zbek davlatchiligini boshqargan qadimiy xorazmshohlar, kushonlar, eftalitlar, ashinaliklar, somoniylar, qoraxoniylar, anushteginlar, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar** sulolalari tariximizda, xususan, Buxoroi azimda o‘ziga yarasha nom va iz qoldirdilar. Bu tarixan to‘g‘ri bahodir. Davlatchiligimiz tarixini yaratishda o‘tmishda hokimiyatni boshqargan barcha sulolalarga **ularning o‘z davrida kelajak avlod uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, kerak bo‘lsa, umumjahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalariga** qarab tarixan xolis baho berish lozim. Zotan, **inson bir paytning o‘zida ham bunyodkor, ham yovuz bo‘lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur’oni karimni yod bilgan inson yovuz bo‘lmaydi.** Amir Temurni nazarda tutib aytilgan bu xulosa ayni paytda temuriylarga, ulardan oldin va keyin o‘tgan deyarli barcha o‘zbek sulolalariga ham tegishlidir, desak bo‘ladi

Alisher Navoiy o‘zining sakkiz majlisdan iborat “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) asarining yettinchi majlisini sohibqirondan boshlab temuriylardan chiqqan shoir, shoirsifat, she’rshunos, olim va fozil kishilarga, sakkizinchi majlisini butkul Sulton Husayn Boyqaroga – shoir Husayniy ijodining tahliliga bag‘ishlaydi. (Asarda ja’mi 459 shoir va adabiyot ahli haqida ma’lumot berilgan). Navoiy Ulug‘bek Mirzo haqida so‘z yuritib, jumladan, bunday deydi: “Donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur’oni majid yodida erdi ...

Buni qarangki, Bobur “Boburnoma”sida o‘zining siyosiy muxolifi bo‘lmish Muhammad Shayboniyxon xuddi shunday fazilat sohibi ekanini e’tirof etadi. Yoki bo‘lmasa, shayboniylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan ashtarxoniylar sulolasining vakili bo‘lgan Subxonqulixonni olib ko‘raylik. Sho‘rolar davrida chiqarilgan maktab darsliklarida faqat qora bo‘yoq chaplangan bu ajdodimiz o‘z zamonasining yetuk olimlaridan bo‘lib, ilmi nujum – astronomiya bilan ham shug‘ullanib, Buxoroda Ulug‘bek ishini davom ettirgan ekan.

O‘tmishda davlatlarimizni boshqargan sulolalarga tarixan xolis va adolatli baho berish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Qolaversa, barcha xonzodalaru amirzodalar ham toju taxt da’vosini qilavermaganlar, shijoatli va dovyuraklarigina maydonga chiqqanlar. Chunki davlatni boshqarish oson ish emas.

Xalq o‘z tarixini asosan o‘z davlatini qurishdan boshlab yaratishga kirishadi. Ma’lumki, turkiy xalq o‘z tarixida 18 ta buyuk va shavkatli saltanat qurgan xalqdir. Insoniyat tarixida boshqa hech bir xalqqa bunday davlatchilik baxti yor bo‘lmagan. Saltanatlar tarixi ayni paytda bu sulolalar tarixi hamdir. Shuning uchun ham o‘tmishda davlatlarning nomlari ularga asos solgan sulolaboshining nomi yoki uning unvoni bilan atalgan. Masalan, xorazmshohlar davlati, g‘aznaviylar davlati, temuriylar davlati, shayboniylar davlati, boburiylar davlati va hokazo.

Keltirilgan bu dalillar ham tarix – xalqning tarjimai holi, degan ta’rifimizni tasdiqlab turibdi. Istiqlol sharofati bilan xalqimizda ma’naviyatning tub mohiyatini – negizini bilishga, tagiga yetishga ishtiyoq kuchayib bormoqda. Turmushda ko‘cha-ko‘ylarda, oddiy va jidsiy suhbatlarda, ilmiy anjumanlarda, muxbirlar bilan bo‘lgan

muloqotlarda, kitobxon, tomoshabin va tinglovchilar tomonidan yo‘llangan maktublarda “Xo‘sh, ma’naviyatning o‘zi nima?” degan savolga tez-tez duch kelasiz. Keyin baholi qudrat tushuntirishga kirishasiz: “Ma’naviyat degani bu...” Biroq javob kutayotgan taraf javobingizdan qoniqish hosil qilmayotganini ilg‘ab qolasiz. Nazaringizda “Sodsagina qilib, bir og‘iz so‘z bilan ifodalang, axir, tushunib yetaylik-da” degan e’tiroz bo‘layotgandek tuyuladi. Shunday g‘oyibona e’tirozlarga javob o‘laroq bizda bunday fikr tug‘ildi: “Ma’naviyat – bu ma’naviyatsizlikning, ya’ni bema’nilikning aksidir. Ma’naviyatni ifodalash uchun ma’naviyatsizlikni ko‘rsatib berish shart ekan. Buning uchun esa qiyos kerak”.

Yurtimiz siyosiy tutqunlikka tushgach, chorizm ma’muriyati VIII asr boshlaridan amalda bo‘lgan vaqf tizimini iloji boricha cheklagan bo‘lsa, sho‘ro hukumati uni umuman barbod etdi. Natijada osori atiqalar doimiy moddiy ta’minotsiz qoldi, umumiy va joriy ta’mirlab turishlar, qayta tiklashlar to‘xtatildi. Ming yillik moddiy-madaniy yodgorliklar qarovsiz qolib, nuray boshladi. 1917 yildan to o‘ttizinchi yillarning boshlarigacha davom etgan milliy-ozodlik uchun bo‘lgan janglarda xalqimiz qanchalik talofat ko‘rgan bo‘lsa, moddiy-madaniy yodgorliklarimiz boshiga tushgan yo‘qotishlar ham bundan kam emas. Lekin siyosiy jilovi Moskvaning qo‘lida bo‘lgan respublikamizning o‘sha paytdagi hukumati kurash jarayonlariga tomoshabin bo‘lib turishdan nariga o‘tolmadi. Chunonchi, moddiy-madaniy yodgorliklar kun sayin nurab borayotganligi masalasi O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Sovetining 1931 yilning 19 yanvarida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida ko‘rilganida viloyatlar ijroiya komitetlariga tarixiy yodgorliklarni ta’mir etish emas, balki suratga tushirib qo‘yish tavsiya etiladi. Bu tavsiya amalda obidalardan voz kechishni buyurardi. Bunday munosabat ma’naviyatsizlikdan boshqa narsa emas edi.

Binobarin, tariximizni chalg‘itib ko‘rsatishga, yolg‘on gaplarni ko‘tarishga harakat qilayotganlar to‘g‘ri bahosini olishlari kerak, bu borada tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona yetkazish chuqur ma’noga ega.

Uzbek xalqining tarixi yozma manbalar bilan bir qatorda osori atiqalarimizda ham muhrlanib qolgan. **Kitoblar o‘qiladigan dalillar bo‘lsa, yodgorliklar ko‘riladigan dalillardir** atiqalar tarixini bilish ham o‘tmishimiz haqidagi taassurotlarimizni boyitadi va aniqlashtiradi. Xalqni tarixii moddiy-madaniy merosni o‘rganish bilan tarbiyalash muh**im** ahamiyatga ega. Chunki har bir katta-kichik yodgorlik o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatlari tarixidagi muhim bir voqea yoki sana bilan bog‘liq, yoki bo‘lmasa davlat ahamiyatiga molik biror zarurat tufayli bunyod etilgan. Bu fikrimizning isboti uchun Buxoroi sharifda uch davrda XII, XVI va XX asrlarda qurilgan yodgorlikni misol qilib keltiramiz. Bular yaxlit bir me’moriy majmuani tashkil etuvchi hozirgi kunda Ulug‘ minor (Minorai Kalon) deb yuritilib turgan Arslonxon minorasi, Jome masjid, Mir Arab va Saidolimxon madrasalaridir. Bu muqaddas yer aslida tarixiy joy hisoblanib, Buxoro Arkidan sal janubiy sharqdadir. Ilk bor bu yerda milodiy 713 yili amir Qutayba ibn Muslim davrida jome masjid qurilgan. Biroq yillar o‘tishi bilan bu bino vayrona holiga kelgan. 1102-1130 yillarda qoraxoniylar davlatini boshqargan amir Arslonxon 1121 yili xuddi shu vayrona masjid o‘rnida yangi va ulug‘vor jome masjidini qurdiradi. Buxoro atrofidagi suvsiz sahrolarda karvonlar yo‘ldan adashib halok bo‘lishi hollari uchrab turardi. Shuning oldini olish maqsadida Arslonxon shaharda baland bir inshoot qurdirishni niyat qiladi. Inshoot loyihalari bo‘yicha tanlov e’lon qilishadi. 1124 yili mashhur me’morlar tomonidan taqdim etilgan loyihalar bilan Arslonxon shaxsan o‘zi tanishadi va usta Baqoning loyihasini ma’qullaydi. Shu tariqa 1124 yilning 22 mart kun yil boshi bayrami ayyomida minora qurilishiga oq fotiha beriladi va birinchi g‘ishtni tamal toshini hoqon Arslonxonning o‘zi qo‘yadi. Qurilish uch yarim yilcha davom etadi. 1127 yili balandligi 47 yarim metr bo‘lgan minora qurib bitkaziladi. Uning eng yuqori qismida 16 ta darichalar (ya’ni mezana qismida) qo‘yilib, tunda hamma darichalar yonida shamchiroqlar yonib turgan. Natijada tunlari 50-60 chaqirim masofadan chiroqlar yorug‘ini mo‘ljal qilib, savdo karvonlari Buxoroga adashmay kelganlar. Buxoroning Buyuk ipak yo‘lidagi yirik savdo markazlaridan biri bo‘lib qolishida bu minoraning ahamiyati kattadir.

Albatta, minoraning asosiy vazifasi azon aytish diniy ahamiyatidir. Minora bilan yonma-yon joylashgan bosh jome masjidning muazzini har kuni besh marotaba shu minoraga chiqib azon

aytgan. Shundan keyin shahardagi boshqa masjidlarda azon aytila boshlagan, namozxonlar ibodatga oshiqqanlar.

Minoraning yana bir vazifasi shuki, tashqi hujumdan o‘z paytida ogoh bo‘lish uchun durbin orqali tevarak-atrof kuzatib turilgan, bu uning harbiy ahamiyatga ham ega ekanligidir. Minoraning to‘rtinchi vazifasi salobati, go‘zalligi, ajoyib naqshlarga boyligi bilan kishilarga zavq-shavq bag‘ishlashidir. U ayniqsa chet elliklar elchilar, savdogarlar, sayyohlarni ham maftun etgan. Bu hol o‘z navbatida davlatning kuch qudrati, shukuhi va shavkatini, poytaxt Buxoroning dong‘ini olisolislarga yetkazardi.

Sharqdagi birinchi Uyg‘onish davrida, ya’ni IX-XII asrlarda Buxoroda ham ko‘pgina buyuk obidalar qurilgan edi. Usta Baqo shu obidalardagi eng guzal naqshlardan ko‘chirma olib, minorada 24 ta katta-kichik halqalar yaratgan. Asosan Chingizxon bosqini davrida, qisman keyingi asrlarda buzilib ketib, bizgacha yetib kelmagan binolarning naqshlari shu minoradagina saqtanib qolgan. Shu bois bu minorani Buxoro me’morchiligining qomusi deyish mumkin. Shunisi alohida tarixiy ahamiyatga egaki, minoraning eng yuqori halqalaridan birida naqshli g‘ishtlar bilan bo‘rtma qilib “Usta Baqo amali”, “Arslonxon minorasi” degan so‘zlar yozilgan. Binobarin, Ulug‘ minorning asl nomi Arslonxon minorasidir. To sho‘rolar zamonigacha barcha yozma manbalarda ham shunday deb tilga olingan. Tarixiy haqiqatlar tiklanib, unutilayozgan yoki atayin unuttirilgan nomlar yana muomalaga kiritilayotgan zamonamizda bu ko‘hna yodgorlikni o‘z oti bilan atab, Arslonxon minorasi deyishni rusumga kiritsak, adolatli ish qilgan bo‘lur edik. Bundan buyuk ajdodimiz Arslonxon boboning ruhi ham shod bo‘lsa ajab emas. Bu minnatdor avlodning o‘z ajdodi xotirasi oldidagi burchi hamdir.

Arslonxon minorasi ne-ne tarixiy voqealarning, qanchadan-qancha sinoatlarning, tabiiy ofatlarning, jangu jadallarning guvohi bo‘lmadi, deysiz. U hatto 1220 yilgi Chingizxon bosqinidan ham omon chiqqan edi. Biroq oradan rosa yetti yuz yil o‘tgach, 1920 yilning 1 sentyabrida bosqinchi Frunze buyrug‘iga ko‘ra qilingan bombardimon natijasida Arslonxon minorasi qattiq zarar ko‘rdi: yodgorlikning 5, 16, 33, 40, 46 metrlariga snaryadlar kelib urilgan edi. Keyinchalik u usta Abduqodir Boqiev tomonidan mohirona ta’mirlangan bo‘lsada, sinchkov ko‘z, o‘tkir nigoh bilan qaralsa, o‘sha jarohatlarning izlarini ilg‘ash mumkin.

Sho‘rolar davrida Ulug‘ minor ma’naviy jarohat ham ko‘rdi. Uni yolg‘on-yashiq kitoblarda, oldi-qochdi fil’mlarda “Ulim minorasi” deb talqin qilishga urinishlar ham bo‘ldi. Shunday noto‘g‘ri taassurotlar hosil qilgan ayrim kitobxonlar, tomoshabinlarga haqiqatni bildirish uchun Ulug‘ minorni qurishdan maqsad bo‘lgan uning to‘rtta vazifasini aytib, ulug‘lab o‘tdik.

Sho‘rolar zamonida o‘zbek davlatlaridan biri Buxoro amirligiga asos solgan va uni 260 yil boshqarib kelgan sulola mang‘it sulolasi faoliyatidan faqat nuqson qidirib, bo‘rttirib ko‘rsatish rusum bo‘lgandi. Vaholanki, Buxoroning 2500 yilligida aytib o‘tganidek, bu sulola vakillari ham tariximizda, xususan, Buxoroi azimda o‘ziga yarasha nom va iz qoldirishgan. Shunday o‘ziga yarasha nom va iz qoldirgan tarixiy shaxslardan biri amir Saidolimxondir. U zamonasi o‘ta notinch bo‘lishiga qaramay Buxoroda madrasa, peterburglik musulmonlarning iltimosiga ko‘ra bu yerda ulkan jome masjid, Yaltada istirohat saroy qurdirishga ulgurgan. Shuningdek, otasi amir Abdulahadxon davrida qurilishi boshlangan “Sitorai mohi xosa” saroyini oxiriga yetkazgan.

O‘quvchida xo‘sh, amir shunday madrasa, masjid va saroylarni qaysi mablag‘ hisobidan qurdirgan? Fuqarolardan olingan soliqlar hisobiga qurdirgan-da!” degan fikrlar paydo bo‘lishi mumkin. Yo‘q, unday bo‘lmagan. Soliqlardan kelgan tushum davlat xazinasiga tushgan. Amirning esa o‘z yer-suvi, mol-mulki bo‘lgan, ulardan kelgan daromad o‘z xazinasiga tushgan. Amirlik xazinasining kirim-chiqim daftarlari bo‘lgan. O‘sha kirim-chiqim daftarida amir xonadonining kundalik sarfiyoti kichik amaldor bo‘lmish mehtar tomonidan yozilib borgan. Unda nondan tortib ho‘l mevalargacha, qandolatlik mahsulotlari – holvayu novvotu pashmakkacha, kiyim-kechakdan tortib upa-elikkacha qayd etib qo‘yilgan. Hammasi hisob-kitobli bo‘lgan. Arkka o‘rta hisobda 3 ming atrofida kishi yashab, xizmat qilgan. (Hozir Arkning 20 foizi saqlanib qolgan, 80 foizi 1920 yilning sentyabr oyida M.Frunze buyrug‘iga ko‘ra bombardimon qilinib, yondirib yuborilgan). Lekin amir xonadonining sarfiyoti davlat xazinasidan emas, balki amirning o‘z xususiy mablag‘idan ishlatilgan. Bu tarixiy ma’lumotlarni keltirishdan maqsadimiz shuki, sho‘rolar davrida to‘qib

chiqarilgan go‘yo “amirlikda amir xazinasi bilan davlat xazinasi umumiy bo‘lgan” degan soxta gaplarga biroz bo‘lsa-da aniqlik kiritish, o‘z davlatchilik tariximiz haqida to‘g‘ri taassurot berishdir. Zero, tarixini bilmaganning kelajagi yo‘q. Buxoroning bugungi qutlug‘ ayyomi, eng avvalo, o‘tmishga ehtirom va buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmatimiz namoyishidir. Buni amalga oshirish esa hammamizning burchimizdir. Shuni unutmaylikki, sho‘ro tuzumining Buxoro amirligining turli yo‘llar, yolg‘on-yashiq bilan badnom qilishdan g‘arazli maqsadi qanday bo‘lmasin o‘zbek davlatchiligini kamsitiish orqali o‘z hokimiyatini ulug‘lash, xalqimizda milliy davlatchilik tuyg‘usini so‘ndirish edi

Adib Sadriddin Ayniy amirning 1912 yilgi kirim va chiqimi o‘sha davr kursi bo‘yicha 30 million so‘m bo‘lganini yozadi. Amirlikning, qisman bo‘lsa-da, davlat mustaqilligini ifodalovchi dalillardan biri uning o‘z mustaqil pul birligiga egaligi, amir siymosi tushirilgan tanga va boshqa pullarning zarb qilinishi edi. Saidolimxon amirlikning mustaqilligini saqlab qolish uchun o‘z daromadlari hisobiga oqposhshoga har yili turli “sovg‘a-salom” qilishdan tashqari zavod-fabrikalar qurishga, tashqi savdoni kengaytirishga, oltin konlarini ishga solishga, qorako‘l savdosiga va boshqa shu kabi tadbirlarga alohida e’tibor bergan. Amir hissadorlik jamiyatlariga a’zo ham bo‘lgan, hissadorlik jamiyatlariga o‘tkazgan mablag‘i 100 million so‘mdan oshgan. U o‘z sarmoyasidan 27 million so‘mini Rossiya davlat bankida, 3 million so‘mini xususiy banklarda saqlagan.

Shariatga ko‘ra har bir mulkdor kishi tasarrufidagi mablag‘ini ushlab turmay, harakatga solishi ravodir. Muhammad Mustafo sallolohu alayhi vasallam o‘z hadisi shariflarida marhamat qiladilarki, mulqdor odam o‘z boyligini ishga solib turishi, o‘zi buni eplay olmasa, omonatga xiyonat qilmaydigan tujjor orqali harakatlantirib turishi, bundan o‘zi ham, o‘zgalar ham manfaat ko‘rishlari lozim, aks holda boylik yillar osha zakotga bera borish tufayli oxirida yo‘q bo‘lib ketishi ham mumkindir. Shariat ko‘rsatgan tarzda tijorat bilan shug‘ullanish halol qilingan. Bu shar’iy tadbirdan mulkdor sifatida amir Saidolimxon ham foydalanishi tabiiy edi. Umuman, uning – Saidolimxonning shaxsiy boyligi 35 million funt sterlingni tashkil qilgan ekan.

Buxoro “qubbatul islom”, ya’ni “islom dinining gumbazi” va buyuk ulamolar so‘zi bilan aytganda, “quvvati dini islom” deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, butun Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo‘tabar markazlaridan biri bo‘lishidan e’tirofdir. Bas shunday ekan, davlat boshlig‘i bo‘lmish amir ham islom arkonlari, jumladan zakot amalini bajarishi tabiiy edi. Ma’lumki, har bir musulmon kishi boyligi nisobga yetgach, har yili boyligining qirqdan biri hisobiga zakot berishi farzdir. Agar hisoblab chiqsak, amir o‘sha 35 million funt sterlinglik boyligidan har yili 875 ming funt sterlingni zakotga ajratishi shart edi. Zakot esa muhtojlarga yordam, tolibi ilmlarga ko‘mak tariqasida sadaqai xayriya maqsadlarida ishlatilgan. Masjidu madrasalar, xonaqoyu rabotlar, ko‘irigu sardobalar va shu kabilarni qurishga, suv chiqarish, yer o‘zlashtirishga, bog‘-rog‘lar yaratishga sarflangan sadaqayu xayriyalar shunday yaxshi amallardan hisoblanganki, Uni amalga oshirgan kishi vafotidan keyin ham shu muassasalardan uning ruhiga savob yozila boradi. Shuning uchun ham oxiratini o‘ylagan mulkdor yoki o‘ziga to‘q har bir musulmoni komil sadaqai xayriyaga sidqidildan yondoshgan.

Ko‘hna Turkistonimizda, jumladan, Buxoroi sharif tuprog‘ida imoratsozlikning ravnaq topishining, buyuk osori atiqalarining qad ko‘tarishining shar’iy asosi ana shu zakotlardadir ham. Masjidu madrasalar, ko‘prigu to‘g‘on kabilarning ularni qurdirgan shaxslarning nomlari (Ulug‘bek madrasasi, Abdullaxon bandi singari) bilan atalishi bejiz emas, albatta. Umuman, butun Turkistondagi, xususan, Buxoro tuprog‘idagi osori atiqalarning har biri xalqimiz farzandlarining himmatli bunyodkorlik faoliyatidan yorqin dalolatdir. Himmat ham ma’naviyat belgilaridan biridir.

Binobarin, yodgorliklarni bilish, ular kim tomonidan, qachon, nima munosabat bilan yoki qaysi voqea sharafiga, yoki bo‘lmasa kim tomonidan qaysi siymo xotirasini abadiylashtirish maqsadida qurilgan, asli nomi qanday atalgan. Mana shularni aniqlash zarurdir. Shu asosda har bir binoning “tarjimai holi” aniqlanadi, mazkur “tarjimai hol”lardan o‘zbek me’morchiligi tarixi tarkib topadi. O‘zbek me’morchiligi tarixi o‘zbek xalqi umumtarixining oltin sahifalaridan hisoblanadi. Buxoro osori atiqalari esa bunda alohida o‘rin egallaydi**.** Moddiy-madaniy yodgorliklarimizda xalqimizning zakovati, salohiyati, bunyodkorligi bilan birga yaratganini asrlar davomsda saqlab, himoya qila olish qobiliyati ham o‘z ifodasini topgandir**.** Ana shu qobiliyat bo‘lmaganda edimi, umuman butun

Turkiston miqyosidagi, xususan, Buxorodagi buyuk obidalar bizning davrimizgacha yetib kelmasdi, albatta. Bunday qobiliyatning ham asosi davlatchilikdir. Davlat xalqni va u yaratgan yodgorliklarni ham bosh himoyachisidir.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, hozir respublikamizda o'sha an'ana davom ettirilib, bunyodkorlik ishlari ikki yo'nalishda olib borilmoqda, ya'ni ko'hna osori atiqalar jiddiy ta'mirlanib, asl holiga keltirilmoqsa va yangi yodgorliklar qurilmoqda. Fikrimizning isboti uchun Amir Temurning Samarqanddagi maqbarasi jiddiy ta'mirlanganini hamda Toshkentda temuriylar tarixi davlat muzeyi qurilganini va shunga o'xshash ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Demak, davlatimiz xalqimiz va u yaratgan yodgorliklarning bosh himoyachisidir: xalqimiz yaratganii davlatimiz himoya qilib kelayapti.

Buxoro vohasida yashagan erksevar ajdodlarimiz har qanday istibdod va zulmga qaramay, el-yurt ozodligi yo'lida muttasil qahramononа kurashib kelganlar. Karmana, Vobkent, Shofirkon, Romitan, G'ijduvon kentlarini yaratganlar. Bu ko'hna kentlar har birining o'z boy tarixi bor, yosh jihatdan biri Buxoroga og'a bo'lsa, ikkinchisi inidir. Bu kentlar tarixini bilmay turib, Buxoroning umumiy tarixini to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi.

Masalan, Karmana tarixini olib ko'raylik. Agarda Ashtarxoniylar zamonida Balx shahri valiahd shahzodaning qarorgohi deb tayinlangan, bir necha viloyatlardan iborat Balx o'lkasi uning tasarrufida bo'lsa, mang'itlar davrida Karmana shunday maqomga ega bo'lgan. Taxt vorisi valihad to taxt sohibi bo'lgunga qadar Karmanada hokimlik qilgan. Hatto amir Abdulahadxon hukmronlik qilgan 1885-1910 yillarda Karmana norasmiy tarzda amirlik markaziga aylangan. Amir Abdulahadxon 13 yil davomida muttasil Karmanada yashab, biror marta ham Buxoroga qadam ranjida qilmagan, davlatni shu yerdan turib boshqargan. Poytaxt bilan uzluksiz ravishda har kuni uchqur otliq choparlar orqali bog'lanib turgan. Shunisi qiziqarliki, bu davr mobaynida bosh vazir maqomidagi lavozim egasi qushbegi mudom Arkda bo'lgan, ijroiya hokimiyatini boshqargan. Mang'it amirligida joriy qilingan davlat qonun-qoidalari, tartib-intizomga ko'ra amir poytaxtda bo'lmagan kezlarda qushbegi Arkda bo'lishi shart edi, hatto Ark darvozasidan tashqariga chiqishi ham mumkin emasdi. Amir Abdulahadxon 13 yil Karmanada yashaganida qushbegi shuncha vaqt Arkda bo'lgan. Buxoro va uning kentlari tarixiga oid hozirgi kitobxonlarimizga deyarli tanish bo'lmagan asarlar ko'p. Bu o'rinda marhum tarixchi olim Mahkam Abduraimovning Buxoro xonligidagi agrar munosabatlarga doir ikki jildli kitobini, qushbegi arxiviga mansub 7 mingdan ortiq hujjat tadqiq etilgan monografiyasini, sho'rolar davrida qatag'onga uchragan tarixchi olim Musojon Saidjonovning ilmiy puxta maqolalarini eslatib o'tishni istardik. Shuningdek, huquqshunos olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Otaboy Eshonovning Buxoro tarixiga oid asarlari qimmatli manbalardandir.

O'zbek davlatchiligida Buxoroning ahamiyati va mavqei yuqori bo'lib kelgan. Buxoroga turkiy qabilalar asos solgan, eng qadimgi milliy qahramonlarimizdan bo'lmish Alp Er To'nga (Afrosiyob) ham aynan Buxoroga dafn etilgan. Zamonlar o'tar, yillar, asrlar o'tadi, kelajak avlodlar, Buxoroga, uning qadim tarixiga qayta-qayta murojaat etadilar. Vatanimizni ozod va obod qilish uchun kurashda qurbon bo'lganlarni, mustaqillik imorati poydevoriga birinchi g'isht qo'ygan ota-bobolarini sira unutmaydilar.

Davlat tuzumining qandayligi uning umuman tarixga, xususan, moddiy-madaniy yodgorliklarga bo'lgan munosabatida ham yaqqol ko'rinadi. So'nggi mustamlaka zamonida Buxoroga bo'lgan munosabat ma'naviyatsizlikdan iborat edi. Inqilob bahonasida shahar obidalari yana bir bor vayron etildi, uning asl farzandlari bir necha marta, chunonchi, 1920 yilda amirga yaqin kishilar sifatida, 1929-1933 yillarda kolxozlashtirishga qarshi yot unsurlar sifatida, 1937-1938 yillarda xalq dushmanlari, chet el ayg'oqchilari, millatchilar sifatida qatag'on qilindi. Vahshiylik shu darajaga borib yetdiki, 1920 yil sentyabr' oyida M.Frunze qo'liga tutqunlikka tushib qolgan amir xonadoni a'zolari uning buyrug'iga ko'ra ikki qismga taqsimlanib, go'dak shahzodalar onalarining issiq bag'ridan tortib olinib Rossiyaga olib ketildi, onalari, opa-singillari va boshqa qari-qartang kishilar mol-mulki tortib olingan holda mamlakatdan chetga chiqarib yuborildi. Bu ham sho'rolar tuzumining qanchalik g'ayriinsoniy va adolatsiz ekanini ko'rsatadi.

## 2. Tarix fanining zamonaviy konsepsiyalari

**Tarixiy konsepsiya** – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va oʻrganish metodlari nuqtai-nazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir. Tarixiy konsepsiya fanning predmetini, tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini bilish va tushunish, ularni belgilab beruvchi omillarni aniqlab beradi.

***Tarixiy konsepsiya*** tarixiy jarayonning asosiy mohiyatini ochib beradi va tushuntirib beradi. Bilish nazariyasi bilish jarayoniga - ya'ni, bilish tamoyillarini aniqlab beruvchi va metodlarning qoʻllanishida asos boʻluvchi fanning metodologiyasiga ta'sir koʻrsatadi. Nazariya va metodologiya oʻrtasidagi farq tarixchilar tomonidan jamiyat taraqqiyoti, shuningdek, alohida tarixiy voqealar va hodisalarning, tarixiy jarayonlarning oʻrganish borasida turlicha farqlanuvchi tushunchalarning shakllanishiga olib keladi.

**Tarix fani konsepsiyasi** bir nechta tushuncha va qarashlarni aks ettiradi:

***Birinchidan,*** tarixiy tadqiqotlarning yetakchi gʻoyasi yoki asosiy, bosh mazmuni boʻlib, ular yordamida tadqiqot ob'ektining tanlanishi asoslab beriladi, tushuntirish tizimini shakllantiruvchi farazlar va tarixiy nazariyalarni yuzaga keltiruvchi tushunchalarni dallillar bilan asoslab berish amalga oshiriladi va tadqiq etilishi moʻljallanayotgan ilmiy masala ilmiy muammo tarzida shakllantiriladi.

***Ikkinchidan,*** tarixiy hodisalarga nisbatan ilmiy qarashlar tizimi va uning predmetini aniqlovchi, tarixiy taraqqiyotning xarakterini tushunish hamda tarixiy jarayonning aosiy mohiyatini aniqlovchi va ochib beruvchi aniq bir tarixiy bilish nazariyasi nuqtai-nazaridan yondashuvlar jarayonlaridir.

**Tarixiy bilimlar** aniq bir ijtimoiy muhitda shakllanadi. Tarixiy bilimlar murakkab va koʻpqirrali jarayon boʻlib, u doimiy rivojlanishda (harakatda) boʻladi, bu jarayonda turli nazariyalar va farazlar oʻzgarib turadi. Nazariyalar va qarashlarning oʻzgarib turishi fanning taraqqiy etib borishi bilan bogʻliq boʻlib, har bir nazariya alohida jarayonlarning tushuntirib berilishi bilan bogʻliqdir. Konsepsiyalarning oʻzgarib turishi esa fan taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir.

U yoki bu **tarixiy konsepsiyaga baho berishda** va ayni bir tarixchining tarix fanidagi oʻrnini aniqlashda birinchi darajali talab shundan iboratki, ayni konsepsiya avvalgilari bilan taqqoslaganda zamonaviy tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qanday yangilikni bera olishi mumkinligiga aniqlik kiritish zarur boʻladi. Qolaversa, har qanday konsepsiyaga baho berishda eng avvalo unga amal qilgan ayni bir tarixchinining tadqiqot jarayonlarining boshlanishidan boshlab to oʻz ilmiy xulosalarini bayon qilishigacha amalga oshirgan tadqiqot jarayonlarini chuqur tushunish lozim boʻladi.

**Zamonaviy tarix fani** avvalgi barcha davrlardagi tarix fanlaridan shunisi bilan farq qiladiki, hozirgi kundagi tarix fani yangi axborot muhitida taraqqiy etmoqda, bu axborot muhitidan tarix fani oʻzi uchun yangi metodlarni oʻzlashtirgan holda ayni vaqtda oʻzi ham uning shakllanishiga ta'sir koʻrsatmoqda. Hozirgi kunda u yoki bu mavzuda tarix tadqiqotlarini amalga oshirish emas, balki ilmiy ijodiy jamolar tomonidan yaratilgan, yirik va ishonchli ma'lumotlar bazalari bilan tekshirish imkoniyati mavjud boʻlgan ishonarli, haqiqiy, tom ma'nodagi ilmiy tarixni yaratish birinchi oʻringa koʻtarilgan.[1]

Jahon miqyosida tarixiy haqiqatga erishish uchun bugungi kungacha mavjud boʻlgan turli gneseologik paradigmalardan foydalangan holda turli yoʻlar bilan borilmoqda. Tarixiy tadqiqotlardagi postmodernizm, ijtimoiy antropologiya, gender yondashuvlariga oʻrniga global

---

[1] Карпов С.П. Историческая наука и историческое образование в современном информационном пространстве: тупики и перспективы. www.hist.msu.ru

tarix chiqmoqda, xattoki unga qarshi antiglobalistlar ham shakllanib va o‘z e’tirozlarini bayon qilib ham ulgurgan. Zamonaviy tarixda alohida tarixiy jarayonlar tarixiga va ayni vaqtda mikrotarixga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda.[2]

## 3. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati.

Tarix o‘tmish haqida ma’lumot to‘plovchi va saqlovchi xususiyatlarga ega bo‘lgan va uni anglash jarayoni bo‘lib, ajdodlar, inson va insoniyatning tarixiy tajribasi haqida mushohada yuritishni aks ettiruvchi ijtimoiy xotiradir.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar sohasida tarixiy xotira tushunchasi va tamoyiliga talab kuchayib bormoqda. Tarixiy xotira masalasiga nafaqat tarixchilar, balki sotsiologlar, madaniyatshunoslar, yozuvchilar va boshqa soha vakillari ham katta e’tibor qaratmoqdalar va unga murojaat qilmoqdalar. Zamonaviy tarix fanida tarixiy xotira alohida mavjud tamoyil emas, balki fanlararo yondashuv asosida shakllanib borayotgan alohida maxsus fan sohasiga aylanib bormoqda. Tarixiy xotira nazariyasi faol tarzda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarix darslarining o‘qitilishi jarayonida tarixiy xotira tushunchasining amalda qo‘llanilishiga katta urg‘u berilmoqda.

Tarixiy xotira nafaqat o‘tmish haqidagi tushunchalardir, balki insonning o‘z-o‘zini anglashi jarayonidagi asosiy omildir.

Xotira inson uchun xos bo‘lgan yuksak xususiyatlardan biri bo‘lib, o‘z o‘tmishiga (ajdodlar o‘tmishiga) mushohadaviy yondashish va xulosalar chiqarish orqali o‘zlikni anglash va aniqlashning asosiy omilidir.

Xotirasidan mahrum bo‘lgan inson o‘zini va o‘zligini anglash imkoniyatidan ham mahrum bo‘ladi.

Xotira abstrakt bilishdan farqlangan holda, bu bilim inson tomonidan kechirilgan va his qilingan bilim bo‘lib, u insonning hayotiy tajribasi hisoblanadi.[3]

Tarixiy xotira - jamiyatning tarixiy tajribasini saqlash va mushohada qilish bo‘lib, u umumiy xotira sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid ayrim adabiyotlarda tarixiy ong yoki jamiyatning umumiy xotirasi inson (insonlarning) xotirasining (xotiralarining) turli va bir-biridan farqlangani kabi ular ham turlicha bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilib, tarixiy ongning shakllantirilishi uchun quyidagi uch omil bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi:

- O‘tmishning unutib yuborilganligi;
- Ayni bir voqea (fakt, jarayon, hodisa) ning turlicha talqin qilinishi va uslublarining mavjudligi;
- Hozirgi kunda o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarga bo‘lgan qiziqish va uni o‘rganishning bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etishi.[4]

Aksariyat hollarda tarix va tarixiy xotira tushunchalari birdek qabul qilinadi va tushuniladi, aslida esa bunday emas va aksincha, ayrim hollarda olimlar tomonidan bu tushunchalar bir-biridan alohida o‘rganiladi. Tarixni o‘rganish o‘tmishni aks ettirish xususiyatiga ko‘ra birmuncha aniq yo‘naltirilgan holda tadqiq etiladigan bo‘lsa, o‘tmish haqida og‘zaki axborotlarning bugungi kunlargacha yetib kelishi afsonalar va rivoyatlar mazmunida kelishi mumkin.[5]

## 4. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishining ayrim konseptual masalalari.

[2] Карпов С.П. Историческая наука и историческое образование в современном информационном пространстве: тупики и перспективы. www.hist.msu.ru

[3] Репина Л.П. История исторического знания: пособие для вузов. 2-е изд., М.: Дрофа, 2006. 10-11 - бб.

[4] История исторического знания. 10-11 - бб.

[5] Tarixiy xotiraga berilgan ta’riflardan biri aynan o‘tmish haqidagi ma’lumotlarning afsonalar va rivoyatlar ko‘rinishida avloddan-avlodga o‘tib borishi, deb ko‘rsatiladi. Tarixiy xotira masalasi bilan XX asrda fransuz tadqiqotchilari Moris Xalbvaks va Pyer Noralar shug‘ullanganlar. .

Har bir xalqning o‘z o‘tmishini o‘rganishga qiziqishi ob’ektiv tarixiy jarayon hisoblanadi. Tarix fanining muhim ahamiyati shundaki, o‘tmish meros, umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish orqali insonda bunyodkorlik va ezgulik g‘oyalarini shakllantiradi.

Har bir inson o‘z xalqining tarixini bilishi bilan bir qatorda boshqa xalqlar tarixi va madaniy merosiga ham hurmat bilan qarashi lozim. Markaziy Osiyo xalqlari azaldan umumiy tarix va o‘tmishga ega. Va tabiiyki ularning kelajagi ham umumiy. Jahon sivilizatsiyasi va umumjahon tarixiy-madaniy merosi faqat alohida bir xalqning faoliyati natijasi emasligi bugungi kunda tan olingan haqiqat. Tarixiy-madaniy meros chegera bilmaydi va u butun insoniyat faoliyati hosilasi va iftixori xisoblanadi.

Afsuski, so‘nggi yillarda ba’zi bir xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlar tarixi tarixiy voqelikka zid ravishda qayta talqin qilinib, o‘z xalqining o‘tmishdagi faoliyatini boshqa xalqlardan ustun qo‘yib ideallashtirishga urinishlar kuzatilmoqda. Tarixiy-ilmiy tadqiqot usul-metodlari, moddiy va yozma manbalarni inkor etib, bunday tarixchilar tarixni maqsadga yo‘naltirgan xolda soxtalashtirishga ochiqdan-ochiq yo‘l qo‘yishmoqda.

Ma’lumki, XX asr davomida arxeologlar Markaziy Osiyoning ilgari noma’lum bo‘lgan qadim o‘tmishini qayta kashf qildilar. Tarix va arxeologiya fanida Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Xorazm sivilizatsiyalari kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Ammo bu kashfiyotlarning tarixiy talqini 70 yil mobaynida G‘arb va O‘rta yer dengizi bo‘ylariga xos ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga xos va mos bo‘lmasada, marksistik yondashuvda tadqiq etildi. XX asr oxirida mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi va eski g‘oyalardan voz kechilishi bilan birga bordi. Go‘yoki O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy va o‘rta asrlar tarixini xolisona o‘rganishga yo‘l ochilgandek edi. Ammo afsuski, jarayon turli davlatlarda turlicha kecha boshladi. Tarixiy voqealarni har tomonlama xolisona talqin etish o‘rniga bir tomonlama, alohida bir xalq milliy manfaatlari nuqtai-nazaridan kelib chiqib qayta yozishga kirishildi. Tarixiy tadqiqotlar bilan faqat soha mutaxassislari emas, balki tamomila o‘zga kasb egalari va xatto davlat rahbarlari shug‘ullana boshladilar. Soxta tarixchilar urchib ketdi. Fan olamida o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan bu “olimlar” faqat dasturxon atrofida emas balki, ommaviy nashrlar, yirik maqolalar va monografiyalari bilan “o‘zlarini” ko‘rsata boshladilar. Achinarlisi, davlat rahbarlari tomonidan yaratilgan va asl haqiqatdan yiroq asarlar siyosiy mavqei tufayli qisqa muddat ichida omma o‘rtasida keng yoyilib, o‘ziga bos “muqaddas kitob”ga aylandi.

Shu bilan bir qatorda maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan, ilmiy-tarixiy maktab ko‘rmagan, tarixiy tadqiqot metodlari bo‘yicha hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan “diletant (havaskor-ishqiboz) tarixchilar” paydo bo‘ldiki, ular qadim tarixning murakkab masalalarini yechishga yeng shimardilar. Bu kabi g‘ayriilmiy tadqiqot ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki ularni birlashtirib turgan yagona g‘oya o‘z xalqi o‘tmishini ulug‘lash, uning o‘ziga xosligini va tarixdagi o‘rnini ko‘klarga ko‘tarish. Ular asosan, quyidagi yo‘nalishlarda tarix faniga “yangiliklar” kiritishdi:

1.Qadimgi davlatchilik. Muallifning etnik mansubligidan kelib chiqqan xolda uning tomonidan yaratilgan asarlarda o‘zi mansub xalq va davlatning o‘ta qadimiyligiga urg‘u berish boshlandi. Masalan, Turkman davlatining asoschisi sifatida tarixiy va yozma manbalarda uchramaydigan, o‘rta asr xalq og‘zaki ijodida eslatiladigan O‘g‘uzxon shaxsi gavdalantirildi. Muallif da’vosi bo‘yicha O‘g‘uzxon davlati mil.avv. III-II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan. O‘g‘uzxon o‘z davlatini poytaxti Oltintepadan turib idora qilgan.

Tadqiqotchi Qosim Masimi tarixiy jarayonlardan yanada ilgarilab ketdi. U o‘zining “Plemennoe ob’edinenie Uygur”. Istoriya Uygurskoy derjavы” asarida Uyg‘ur davlatchiligining boshlanishini mil.avv. 12 ming yillik qilib belgilaydi. Tarixiy davrlashtirishda bu davr o‘rta tosh davri Mezolit bo‘lib, ishlab chiqarish xo‘jaliklari hali uzil-kesil qaror topmagan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik hukmron, davlatchilikdan ancha yiroq davr ekanligi kunday ravshunku? Xatto dunyoning biron bir nuqtasida davlatchilikka o‘tilishi haqida hali gap ham bo‘lishi mumkin emas ...

Qirg‘izistonning sobiq davlat rahbari A.Akaevning qirg‘iz xalqi davlatchiligini 2300 yil bilan belgilash tashabbusi ham ilmiy metodik va arxeologik jihatdan o‘z tasdig‘ini topmaydi.

2.Xalq va xalq nomi kelib chiqishining qadimiylashtirilishi.

Marhum Saparmurod Niyozovning “Ruxnoma” asarida “turkman” nomini olgan etnos bronza davridayoq mil.avv. III-II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan. Biroq zamonaviy tarix Anov davri (eneolit-bronza)ga oid urug‘ yoki qabila nomi va uning tili haqida ma’lumot keltirilgan biron bir manbani bilmaydi. O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqidagi eng dastlabki manba faqat Avesto. Avesto kitobining paydo bo‘lishi mil.avv. I ming yillikning ikkinchi choragidan nari o‘tmaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining bugungi nomi paydo bo‘lish sanasi o‘rta asrlar bilan bog‘liqligi shubhasiz.

3.Qadimgi davlat va xalq yashagan xududning haddan ortiq kattalashtirilishi.

Qosim Masimining yuqorida tilga olingan asari 313 betida Uyg‘ur davlatining xaritasi keltirilib, unda bu davlatning hududi Tinch okeanidan tortib to Sharqiy Yevropa yerlarini ham to‘liq o‘z ichiga olganligini ko‘rishmiz mumkin ...

Ushbu kitobning 310-311 betlarida ta’kidlanishicha, Amerika hindulari bu uyg‘urlar bo‘lib asarda ularning Bering bo‘g‘ozi orqali Amerikaga harakatlanish sxemasi ham keltiriladi.

“Ruxnoma” kitobida turkman xalqning buyuk o‘tmishi ulug‘lanib, ular tomonidan 26 ta turkiy davlatga asos solinganligi qayd qilinadi. Ular orasida turkmanlarga umuman aloqasi bo‘lmagan Qoraxoniylar hoqonligi, G‘aznaviylar davlati va Misrdagi Mamlyuklar davlatini ko‘rish mumkin.

N.Nigmatovning “Tadjikskiy fenomen: teoriya i istoriya” (Dushenbe. 1997 g.) kitobida “tarixiy Tojikiston” tushunchasi “ilmiy muomalaga” kiritilgan bo‘lib, uning hududi butun O‘rta Osiyo mintaqasini qamrab olgan (21 bet). Muallif da’vo qilishicha, bu afsonaviy “tarixiy Tojikiston” qadimgi Sharq sivilizatsiyalari zamonida mil.avv. III-II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan va qadimgi Bobil, Xett va finikiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

Umuman tarix fanida yuzaga kelgan bunday g‘ayriilmiy, tarixiy haqiqatdan ancha yiroq asarlarni o‘qib, nahotki ushbu ishlarning ilmiy muharriri bo‘lmagan bo‘lsa? degan hayolga botasan. Yo‘q, kitob boshida yoki oxirida ularning ismi-sharifi keltirilgan. Biroq ular fikrimizcha o‘ta yomon mutaxassis. Nima bo‘lganda ham bu kabi “tarix yaratuvchilarga” mashxur fransuz shoiri Pol Valerining so‘zlarini eslatib qo‘yish joiz: “Tarix – intellektual kimyo yo‘li bilan yaratilgan eng xavfli maxsulot. U orzu qilishga majbur qiladi, xalqlarni mast qiladi, ularda yolg‘on taassurotlarni tug‘diradi ... takabburlik, ta’qib, serzardalik, toqatsizlik va manmanlik hissini shakllantiradi”.

## Nazorat savollari

1. Tarix fanining jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni va rolini qanday baholaysiz?
2. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda innovatsiya tushunchasi va uning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida tarix fanining konseptual masalalari.
4. Mustaqillik yillarida tarix fani tadqiqotlarida va uni o‘qitishdagi o‘zgarishlarga baho bering.
5. Tarix fani manbashunosligi va tarixshunosligining bugungi ahvoli. Mavjud muammolar yechimiga yangicha yondashuvlarga sizning munosabatingiz.

## MAVZUNI MUSTAHKAMLASh BO‘YIChA SAVOLLAR:
## (savolga mos javobni aniqlang)

| t/r | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| **1** | .... – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va oʻrganish metodlari nuqtai-nazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir. | Tarixiy konsepsiya |
| **2** | Zamonaviy tarixda alohida tarixiy jarayonlar tarixiga va ayni vaqtda ....... boʻlgan qiziqish kuchayib bormoqda | mikrotarixga |
| **3** | .... - jamiyatning tarixiy tajribasini saqlash va mushohada qilish boʻlib, u umumiy xotira sifatida namoyon boʻladi | Tarixiy xotira |
| **4** | Zamonaviy tarix fanida tarixiy xotira alohida mavjud tamoyil emas, balki fanlararo yondashuv asosida shakllanib borayotgan ............... sohasiga aylanib bormoqda | alohida maxsus fan |
| **5** | .... tarixiy jarayonning asosiy mohiyatini ochib beradi va tushuntirib beradi. | Tarixiy konsepsiya |
| **6** | .... nafaqat oʻtmish haqidagi tushunchalardir, balki insonning oʻz-oʻzini anglashi jarayonidagi asosiy omildir | Tarixiy xotira |

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Ma’lumki, ibtidoiy odamlar oʻzlarining hayoti, turmush tarzi haqida yozma ma’lumotlar qoldirmaganlar. Shunga qaramasdan, eng qadimgi odamlar vakillari va ular madaniyatining nomlari bizga ma’lum. Olimlar bu nomlarni qanday belgilaydilar (aniqlaydilar)?**
A) Sharqning eng qadimgi yozma yodgorliklari ma’lumotlari asosida.
V) Sharq va Gʻarbdagi qadimgi rivoyatlar asosida.
S) Qazilma odamlar va ularning madaniyatlari qoldiqlari topilgan joylar va aniqliklar asosida.
D) Umuminsoniyat qabul qilgan jumlalar va aniqliklar asosida.

**2. Mil.av 2 ming yillik oʻrtalarida Oʻzbekiston xududida..?**
**A) qadimiy Dunyo xalqlari madaniyati rivojida chorva qabilalari madaniyati shakllandi**
V) ilk davlatchilik birlashmalariga oʻtish jarayoni boshlandi
S) ilk shaharlar paydo boʻlish jarayoni boshlandi
D) Aholi oʻtroqlashish jarayoni boshlandi

**3. Tarix fanida odamning kelib chiqishi va odamning rivaojlanishi qaysi ma’lumotlarga qarab oʻrganiladi?**
**A) Arxeologik va antropologik ma’lumotlarga qarab.**
V) adimgi yozuvlar, qoʻlyozmalari asosida
S) oʻtmish asrlarning badiiy asarlari asosida
D) Buni tarix Fani oʻrganmaydi

**4. Tarix fanining qadimgi va oʻrta asrlar bitiklarini oʻrganuvchi sohasini aniqlang.**
**A) epigrafika**
V) lingvistika
S) antropologiya
D) numizmatika

**5. Ma’lumki, Oʻrta Osiyo xalqlarida Misr va Mesopotamiyadan keyinroq yozuv shakllangan. Hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning yozuvlari qachondan boshlab yaratilganligi taxmin qilinadi?**
**A) Mil.av. V-IV asrlar**

V) Mil.av. IV-III asrlar

S) M.av.  III-I asrlar
D) M.av.  III-II asrlar

**6. O‘rta Osiyo tarixiga oid qadimgi yozma manbalar qaysi davr haqida ma’lumotlar beradi.**
A) mil.avv. II ming yilliklar haqida
V) antik davr haqida
S) mil.avv. II-III ming yilliklar haqida
**D) mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmi haqida**

**7. Markaziy Osiyoda dastlabki yozuv qachon paydo bo‘lgan?**
A) bundan 3000-2700 yillar oldin
**V) bundan 2400-2300 yillar oldin**

S) bundan 5000 yillar oldin
D) bundan 4400-4600 yillar oldin
Ye) bundan 1000 yillar oldin

**8. O‘rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv...**
A) Surxon vohasidan topilgan
V) Janubiy Turkmanistondan topilgan
S) Afrosiyob qo‘hna shahridan topilgan
D) Mug‘ tog‘idan topilgan
Ye**) Xorazmdan topilgan.**

**9. Mil.av. III-II asrlarda shakllangan so‘g‘d yozuvi bitiklari qaysi xududlardan topilgan?**
A) Markaziy Osiyo, Pokiston
V) Sharqiy Turkiston, Pokiston
S) Mo‘g‘uliston
D) Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston
Ye**) Barcha javoblar to‘g‘ri**

**10. Markaziy Osiyo hududida turkiy tilda so‘zlashuvchi etnos qachon vujudga kelgan?**
A) mil.avv. II-I asrda
**V) mil.avv. III-II asrda**
S) mil.avv. VI-IV asrda
D) mil.avv. VII-V asrda
Ye) mil.avv. IV-III asrda

**Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’anviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
9. Ilhomov Z. Abu Rayhon Beruni va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari. Tarix, ta’lim va xotira. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.TDPU. 2015. 151-155-bb
10. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi (tarixiy bilish, tarixiy ong va tarixiy xotira). T.TDPU. 2015.
11. Ilkhamov Z.A. The Logical Theory of Evidence-Based Interpretation (scientific source analysis). Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol 10 No 1 (2020)
12. Rajabov R va boshq. Tarix fani metodologiyasi (darslik). Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2018.
13. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. Toshkent, “Istiqlol”. 2013.
14. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.I. Istoricheskoe soznanie. T.: “O‘zbekiston”. 2008.
15. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.II. Fenomen djadidizma. T.: “O‘zbekiston”. 2009.
16. Ilhomov Z. Sharq tarix falsafasi haqida muloxazalar. Ilk o‘zbek davlatchiligi tarixi. Respublika ilmiy konferensiyasi. T. 2010 y
17. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent, TDPU rizografi. 2013.
18. Ilhomov Z.A., R.Mulladjanova Zamonaviy tarix fanining ayrim nazariy masalalari (konsepsiyalar, nazariyalar va ilmiy qarashlar). Tarix fani metodologiyasi va tarix ta’limining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Navoiy sh. NavDPI. 2019. 31-34-bb

# 2-MAVZU. OLIY TA’LIMDA TARIX TA’LIMINI TAShKIL ETIShNING KONSEPTUAL ASOSLARI.

1. Zamonaviy tarix ta’limi.
2. Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari.
3. Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari

## 1.Zamonaviy tarix ta’limi.

Fanlararo yondashuv va insonpvarvarlik tushunchalari asosida tarixiy jarayonlar va hodisalarning ilmiy tahlili professionallik, fuqarolik burchi va vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fanini o‘qitishda tarixshunoslik va tarix fani metodologiyasi fanlari bilan bir qatorda manbashunoslik fani ham asosiy fanlardan biri sanaladi, shunday ekan har bir yetkazib berilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi uchun tarixchining ma’naviy mas’uliyati ham bu borada alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra bugungi kun tarixchi olimlari oldida quyidagi bir qator muhim vazifalar turganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin, eng avvalo, tarixiy bilish nazariyasi borasidagi eng so‘nggi zamonaviy tajribalarni umumlashtirish, ikkinchidan, jahonning zamonaviy tarixiy ilmiy tafakkuri taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi axborot-tahliliy materiallarni

muntazam ravishda e’lon qilib borish, shuningdek, tarix fani metodologiyasi muammolari, tarixshunoslikning zamonaviy ilmiy-nazariy muammolari, tarixiy bilishning zamonaviy tizimlari, yo‘nalishlari va ilmiy maktablari kabi masalalar yuzasidan maxsus yoki umumiy o‘quv kurslari tashkil qilish, fanlararo yondashuv masalalari va zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolarini ta’lim amaliyotiga imkon qadar kengroq joriy etish, qolaversa, tarix fani metodologiyasi ilmiy muammolari borasidagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va kadrlar tayyorlash masalalarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin[6].

**Oliy ta’lim tizimida tarix fanini modernizasiyalash masalalari. Oliy ta’limda tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari.**

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi kunda tarix fani sohasida ta’lim olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etish kabi o‘zlashtirish uslublari, ulardan foydalanish samaradorligini bilish haqidagi tarixiy tadqiqot uslublari va ilmiy-tarixiy haqiqatga erishish yo‘llarini anglashi lozim.

Hozirgi vaqtda tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda va ularning ilmiy tadqiqot malakasini shakllantirishda tarix fanining turli tadqiqot uslublari va yondashuvlari haqida yetarli bilim berish va ularning tarixiy tadqiqotlar jarayonida to‘g‘ri va ilmiy, tarixiylikka asoslangan xulosalarni chiqarishga yo‘naltirish bugungi kun tarix o‘qitishning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlari shu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi: -“Yomon tomoni shundaki, sub’ektiv fikr yuquvchan bo‘ladi. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan biryoqlama fikr odamlarni, eng avvalo, tarix o‘qituvchilarini chalg‘itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan, deb o‘quvchilarga ham yetkazishadi. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin”[7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan imzolangan "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutish bilan birgalikda bugungi kunda oliy ta’limning sifati va samaradorligini yuksaltirish borasida pedagoglar oldida katta mas’uliyat turganligi belgilab beradi.

**Adabiyotlar**

19. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Sharq», 1998.
20. Karimov I.A. Yuksak ma’anviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
21. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.

[6] Бориснёв С.В. Современные проблемы теории и методологии исторического исследования // cyberleninka.ru
[7] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. 6-б.

22. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
23. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
24. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
25. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
27. Ilhomov Z. Abu Rayhon Beruni va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari. Tarix, ta’lim va xotira. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.TDPU. 2015. 151-155-bb
28. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi (tarixiy bilish, tarixiy ong va tarixiy xotira). T.TDPU. 2015.
29. Ilkhamov Z.A. The Logical Theory of Evidence-Based Interpretation (scientific source analysis). Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol 10 No 1 (2020)
30. Rajabov R va boshq. Tarix fani metodologiyasi (darslik). Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2018.
31. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. Toshkent, “Istiqlol”. 2013.
32. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.I. Istoricheskoe soznanie. T.: “O‘zbekiston”. 2008.
33. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.II. Fenomen djadidizma. T.: “O‘zbekiston”. 2009.
34. Ilhomov Z. Sharq tarix falsafasi haqida muloxazalar. Ilk o‘zbek davlatchiligi tarixi. Respublika ilmiy konferensiyasi. T. 2010 y
35. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent, TDPU rizografi. 2013.
36. Ilhomov Z.A., R.Mulladjanova Zamonaviy tarix fanining ayrim nazariy masalalari (konsepsiyalar, nazariyalar va ilmiy qarashlar). Tarix fani metodologiyasi va tarix ta’limining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Navoiy sh. NavDPI. 2019. 31-34-bb

## 3-MAVZU. TARIXIY BILIShNING O‘ZIGA XOSLIGI VA TARIXIY BILISh TAMOYILLARI

1. Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o‘zaro bog‘liqligi.
2. Bilishning retrospektiv xarakteri.
3. Ikki karra sub’ektlangan bilim. Tarix fanining kompleks xarakterliligi.
4. Bilish tamoyillari va ularning regulyativ funksiyalari.
5. Sababiylik tamoyili (Determinizm tamoyili).
6. Xolislik (ob’ektivlik) tamoyili.
7. Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar.
8. Tarixiylik tamoyili.
9. Tizimlilik tamoyili.

**Tayanch tushunchalar:** tarixiy bilish, determinizm, (sababiylik) tamoyili, postmodernistlar, relyativizm, sub'ektivlik, tamoyillar, bilish tamoyillari, tizimlilik (sistemalilik) tamoyili, sistema, tizimlilik tamoyili, xolislik (ob'ektivlik) tamoyili.

## 1. Tarix fanmi yoki san'atmi? Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o'zaro bog'liqligi.

Tarixning fan yoki badiiy ijodning bir ko'rinishi ekanligi borasida tarixchilar va faylasuflar o'rtasidagi bahs va munozaralar uzoq vaqt davom etib keldi. Keyingi fikrni asoslashga ko'proq postmodernistlar moyillik bildiradilar. Tarixchilar esa ayrim hollarda ssientistlar (tarixni fan deb hisoblovchilar) hamda antissientistlar (tarixning ilmiy emasligini isbotlashga harakat qiluvchilar) bilan munozaraga kirishgan holda, odatdagidek tarixiy tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Har ikki qarashning orasida uchinchi bir qarash mavjudki, bunda tarixning fan ekanligi, biroq boshqa tabiiy va aniq fanlardan alohida xususiyatlari bilan ajralib turishi ta'kidlanadi.

Pozitivistlar tabiiy fanlar va gumanitar fanlar metodlari o'rtasida prinsipial farqlar mavjud emas degan qarashdan kelib chiqqan holda o'z qarashlarini ilgari suradilar. Bunda ular sotsiologiya fanini jamiyat qonuniyatlarining muvofiqlashtiruvchi sifatiga alohida urg'u berib, tarix fanini ham "pozitiv" bilim berishga layoqatli deb hisobladilar.

Neokantchilar esa pozitivistlarga qarshi fikr bildirib, tarixning asosiy vazifasi qonuniyatlarni ochish emas, balki tarixni tashkil qiluvchi alohida, individual, takrorlanmas hodisalarni o'rganishni taklif qildilar. Marksistlar esa jamiyatdagi bilish qonuniyatlari g'oyasini ilgari surib, tarixni o'rganishga bo'lgan boshqa qarashlarni soxtalashtirilgan ijtimoiy hodisalarni o'rganish deb hisobladilar.

XX asr oxirlarida ham tabiiy fanlar tadqiqot usullarining (matematik modellashtirish, tartibsizlik nazariyasi (xaos nazariyasi - biror-bir narsa yoki voqeaning turli aralash unsurlardan yoki aralash voqealardan kelib chiqqanligini asoslashga harakat qiluvchi nazariya va boshqalar) tarix fani tadqiqotlarida ham qo'llanilishining qanchalik to'g'riligi va samara berishi haqida bahs va munozaralar davom etib keldi.

K.Yaspersning fikricha, tarix fanining eng muhim savollaridan biri bu – "aslida bu qanday sodir bo'lgan edi?" tarzida emas, balki, "biz aslida qanday holatdamiz (yoki qaerdamiz)?" tarzida, ya'ni, boshqacha so'zlar bilan aytganda, tarix bilimlarining maqsadi – bizning bugunimizni (aslimizni) aniqlashdir. Shundan kelib chiqqanda tarix – bu zamonaviy muammolarni hal etishga va anglashga yo'naltirilgan qator hodisalar va jarayonlardir.[8]

"Annallar maktabi"ning eng yirik yutug'i F.Brodelning sivilizatsiyalar va iqtisodiy jarayonlarga bag'ishlangan uch tomlik kitobi bo'lib, muallif tomonidan unda jamiyat hayotining barcha sohalari yuzasidan umumlashtirilgan tadqiqot bajarilgan holda tarixiy sintez amalga oshirildi.[9]

F.Brodel tarixiy geografiyani nazariy jihatdan asoslab berdi. Geografiya fani tarix faniga nisbatan yordamchi fan sifatidagi faoliyatini to'xtatdi[10].

R.Aronning fikricha, tarixiy bilish – bu mavjud bo'lgan, bo'lib o'tgan [voqea] larning rekonstruksiyasidir. Tarix – bu yagona va yaxlit jarayon bo'lib, u [tarix] insonni, uning fikrlashini tushunishi lozim. Tarixiy bilishning bir-biriga mosligi yoki aynanligi bilish sub'ektiga, uning tafakkuriga bog'liqdir.[11]

---

[8] Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., 1991.
[9] Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С.110.
[10] Бродель Ф. История и общественные науки. Историческая деятельность // Философия и методология истории. Благовещенск, 2000. С. 133.
[11] Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С.113.

R.Aronning tarixiy bilish haqidagi fikrining tarafdorlaridan biri tarixchi Pol Ven bo‘lib, u ham tarix va tarixiy bilish haqida bir qator fikrlarini bildirib o‘tgan. P.Venning fikricha, tarix – bu real voqealarga asoslangan tushunish muammosi bo‘lsa, metodlar yoki uslublar – bu tajribadir. P.Venning yana ta’kidlashicha, tarixiylik metodi mavjud emas va bu tushunchani tanqidiy yondashuv deb ko‘rsatish kerak, nazariya esa - bu chalkashlik mohiyatining qisqacha bayon etilishidir.[12]

Bugungi kundagi axborotlashtirish jarayonlari turli fan tarmoqlarini bir-biriga yaqinlashtira boshladi. Shuningdek, bugungi kunda fanning o‘ziga qarashlar va fan haqidagi tasavvurlar ham o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy va gumanitar fanlarda bo‘lgani kabi tabiiy fanlar qarshisida ham bugungi kunda eng dolzarb muammo bo‘lib turgan masala mutlaq, ob’ektiv haqiqatga erishish muammosidir.

Tarixga bo‘lgan munosabat va qarash fanga bo‘lgan munosabat va qarash kabi bo‘lishi kerak va zarurdir. Biroq bunda har bir fan kabi tarix fanining ham o‘ziga xos xususiyatlarini mavjudligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozimdir. Uning asosiy xususiyati tadqiqot ob’ektidir, ya’ni u o‘tmishda sodir bo‘lganligidir. Tarix fani vaqt nuqtai nazaridan olis o‘tmishdagi ob’ektni harakatga keltirishi kerak. Biroq bunda tadqiqotchi tadqiqot ob’ektini kuzatish va tajribalar o‘tkazish imkoniyatidan mahrum etilgan. Tabiiy fanlarda ham bunday jarayonlarni kuzatish imkoniyati cheklangan bo‘lishi tabiiy, tarixchida esa bunday vaqtda mantiqan, fikrlash va tafakkuri yordamida voqealar tizimini shakllantirishi va modellashtirish imkoniyati mavjud. Ayni vaqtda tarixchida manbalar, uslublar hamda tadqiqotlar usullari mavjudki, bu uning tadqiqot sohasidagi katta ustunligidir. Tarixiy bilishning ikkinchi xususiyati shundaki, tarixchi hozirgi zamonda turgan holda o‘tmishni tadqiq etadi. Hozirgi zamon o‘tmishning bir qancha hodisalari va tarixiy jarayonlarini interpretatsiyalaydi. Biroq bunda hozirgi zamon o‘tmishni aynan shakllantirmaydi, balki o‘tmish bizning tasavvurimizda hosil bo‘ladi. Madaniyat, mafkura, ayni jamiyatning ma’naviy boyliklari, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ham bunda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tarix fani madaniyatning darajasi va xususiyatlarini aks ettirgan holda uning bir qismini o‘zida namoyon etadi. Tarixchi ana shu madaniyat maydonida faoliyat ko‘rsatib, hozirgi zamonda turgan holda tadqiq etilayotgan o‘tmish davr madaniyati bilan muloqotga kirishadi. Hozirgi zamon omili tadqiqotning cho‘qqisi, bilimning darajasi va saviyasi, boshqa gumanitar fanlarning taraqqiyotini aniqlab beradi. Zamonaviylik va zamon talablariga moslikning tarixchiga ta’siri kuchlidir. *Totalitar tuzumlar hukmronligi vaqtida tarix fani hech qanday takalluflarsiz o‘sha tuzum mafkurasiga va tartib-qoidalariga bo‘ysunishga majbur qilingan.*

Ayrim tarixchilar o‘tmishning bugungi kunga ta’sir ko‘rsatgan jarayonlarini o‘rganish kifoyadir, degan fikrni ham ilgari surganlar, biroq bugungi kun jarayonlarini bilish va uni tushunish, teran anglash uchun o‘tmish tarixni to‘laligicha o‘rganish talab etiladi. “Prezentistlar”ning fikricha, tarix barcha davrlarda ayni o‘sha zamon nuqta-nazaridan yozilgan, ya’ni ayni o‘sha vaqt yozilgan tarix uchun zamonaviylik kasb etgan, shu sababli turli vaqtlarda yozligan tarix o‘tmish haqida hech qanday ob’ektiv tushuncha va tasavvur yoki ma’lumot bera olmaydi, deb hisoblaydilar. O‘tmish va hozirgi zamon, moziy va kelajak bir-biri bilan bog‘liq va biri-biriga mosdir. Agar o‘tmishda sodir bo‘lgan voqea yoki tarixiy jarayon bir guruh insonlar manfaati yoki davlatlar qarashlari uchun zarur bo‘lsa u yana qaytadan faollashtiriladi. Misol uchun, agar urush harakatlari olib borilayotgan bo‘lsa, urushlar tarixiga, sarkardalar faoliyati tarixiga, shu sohalarga bog‘liq islohotlar tarixiga qiziqish ortadi. Prezentizm tarixni modernizatsiyalashga, ya’ni o‘tmish tarixiy voqealarini zamonaviylashtirilishiga olib keladi.

E.Xobsboumning fikricha, biz hozirgi kun nuqtai-nazaridan o‘tmish haqida xulosa chiqaramiz, biroq bu bilan cheklanib qolsak, o‘tmishni ham, kelajakni ham to‘liq tasavvur qila olmaymiz. Bu bilan u juda to‘g‘ri fikrlagan edi.

## 2. Bilishning retrospektiv xarakteri.

[12] Вен П. Как пишут историю: опыт эпистемологии. М., 2003.

Tarixiy bilish retrospektiv xususiyat kasb etadi. Bunda tarixiy tadqiqot jarayonida zamonaviylikdan o'tmishga tomon, ya'ni oqibatlarning sabablarini izlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunda tarixiy jarayonlar va hodisalarni avvalgi va keyingi holati bo'yicha butun boricha tasvirlash imkoniyati yuzaga keladi. To'g'ri bunda o'tmishni *modernizatsiyalash*, ya'ni tarixiy voqelarning zamonaviy talablarga moslashtirilishi yoki *arxaiklashtirish*, ya'ni tarixni ayni eski holatining xususiyatlarini ilgari surishga yo'l qo'yilishi mumkin. Ayni vaqtda zamonaviy tarixchi uchun o'tmish haqida va o'tmishni tasavvur qilish va his etish murakkablik tug'diradi, chunki o'sha davr tarixchilarining o'zlari ham o'z zamonlari va o'zlaridan avvalgi davrlarni tushunishda va tavsiflashda xuddi shunday qiyinchiliklarga duch kelganlari tabiiy.

Tabiatdan farq qilgan holda jamiyatda ongi va tafakkuri jihatdan yuksak iqtidorga ega bo'lgan hamda o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yib unga erishishga harakat qiladigan insonlar harakatda bo'ladi va faoliyat yuritadi. Bundan tashqari tabiiy fanlarda ob'ekt va sub'ekt bir-biriga qarama-qarshi turadigan bo'lsa, tarix fanida o'zaro munosabatlar bir muncha murakkab jarayondir. Tarix fanida sub'ekt, ya'ni tadqiqotchining o'zi ayni vaqtda tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi hamdir. Bu holatda tarixchi, ya'ni sub'ekt tarixiy jarayonlarni chetdan turib kuzata olmaydi va bunda insonning o'z-o'zini, o'zining faoliyatini bilish va tahlil qilish jarayoni kechadi. Tarixchi tadqiqotchi tadqiqot davomida tarixiy jarayonlarda faoliyati muhim ahamiyat kasb etuvchi insonlar faoliyatini tadqiq qilar ekan, uning tarixiy bilish darajasi *qiyosiy xususiyatga* ega bo'ladi va bunda tarixiy jarayonlardagi insonlar faoliyati turli darajada baholanib boriladi. Tarixchi tarixiy jarayonlar va voqealarning ahamiyatini aniqlagan holda, ayni vaqtda insonlar faoliyatiga ham baho beradi. Bu *tarix fanining o'ziga xosligi*dir. Tarix fani haqida fikr yurituvchilarning ko'pchiligi odatda qo'lga kiritilgan natijalarning sub'ektivligi haqida fikr bildirib, buni *mutlaq haqiqatga* erishishdagi eng katta to'siq deb hisoblaydilar.

### 3. Ikki karra sub'ektlangan bilim. Tarix fanining kompleks xarakterliligi.

I.Kovalchenkoning fikr bildirishicha, tarixiy bilish *ikki karra sub'ektlangan* bo'lib, birinchidan tarixchi sub'ektiv xarakterdagi tarixiy manbalar bilan ishlaydi va ikkinchidan, ayni vaqtda manbalardagi faktlarning, ulardagi tarixiy voqealar va tarixiy jarayonlarning tavsiflari keltirilgan ma'lumotlarning interpretatsiyasi jarayonida ham umumiy xulosalarni berishda o'zining shaxsiy, sub'ektiv fikrlarini berishga majbur bo'ladi. Adabiyotlarda tarixchining sub'ektivligini ob'ektiv haqiqatga erishishdagi asosiy to'siq sifatida ko'rsatilsada, bu yerda sub'ektivlikning sifati aksincha, uzoq o'tmishga kirib borish imkonini beradi. Buning o'ziga xosligi va isboti shundaki, Geradotdan boshlab barcha buyuk tarixchilarning asarlari va ularning tarixiy ma'lumotlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va barcha tarixchilar uchun qimmatli manbalar bo'lib sanaladi, ayni vaqtda ular tarix fanining rivoji va taraqqiyoti uchun bugungi kunda ham xizmat qilmoqda.

*Plyuralizm* tarafdorlari ayni bir tarixiy voqea yoki jarayonning turli asoslari va qonuniyatlari mavjud deb fikraydilar. Bunday turli –tumanlik qarashlarining mavjudligi tarixiy tadqiqot ob'ektining murakkabligini, ya'ni tarixiy voqelikning yuz berishining turli holatlari bilan izohlaydilar. Tarixiy reallikning o'zini turlichadir, uning yuzaga kelishi va turli o'zaro aloqalarini o'rganish kerak, deb hisoblab, tarixiy voqelik yoki tarixiy reallikni tarixiy manbalar yordamida tiklanadigan ayrim ma'lumotlar tarzida tushuntirishga harakat qiladilar. *Plyuralizm g'oyasi tarixchining dunyoqarashidagi turlichalik va uning metodologik bilimlari bilan bog'liqlikni ilgari suradi.*

Tarixda barcha tarixchilar tomonidan birdek isbotsiz qabul qilinadigan biror-bir nazariya, xattoki eng ahamiyatli va eng dolzarb tarixiy tushunchalar va kategoriyalar borasida ham tarixchilar o'rtasida yagona kelishuv mavjud emas. Shundan tarix fani metodologiyasidagi *polisemantlilik* tushunchasi kelib chiqadi. Buni esa ayni bir tarixiy voqea va hodisa yoki jarayonning turlicha interpretatsiyalanishi bilan tushunish mumkin. Bu esa tarix fanini chuqurroq anglash va bilish imkoniyatini beradi. Barcha interpretatsiyalar o'zaro umumiylik kasb etib, o'tmish voqealari va jarayonlar haqida mukammal tasavvurning yaratilishiga imkon beradi. Buning asosiy jihati shundaki, u keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni aniqlab beradi.

Tadqiqotlar jarayonida avvalgi tadqiqotlarning xulosalariga aniqlik kiritiladi va xulosalar mukammallashtiriladi va ilmiyligi oshriladi. Bu esa bilish jarayonining tugallanmasligini ko‘rsatadi va turli fikrlar to‘qnashuvi natijasida ishonchliroq xulosalarning chiqarilishiga imkon beradi.

*Tarixiy bilishning asosiy maqsadi* – ob’ektiv va xolis, tizimli, konkret jamiyatning taraqqiyotidagi tarixiy jarayon haqidagi konkret bilimga va ilmiy jihatdan asoslanilgan tarixiy haqiqatga erishish hisoblanadi.[13]

*Tarixchidan o‘ziga ortiqcha ishonmaslik va ortiqcha baho bermaslik, balki bilish jarayonida qiyinchiliklarni yengib o‘tish talab etiladi*. Chunki tarix fanining shunday xususiyati borki, bu barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning ilmiy sohadagi yutuqlarini umumlashtirgan holda integrallashtirish va ularni tarix fani tadqiqotlarida kompleks qo‘llashdir. Bu tarixchi uchun g‘oyatda murakkab vazifadir.

## 4. Bilish tamoyillari va ularning regulyativ funksiyalari.

Bilish tamoyillari tadqiqotchiga tadqiqot jarayonidagi vazifalarni bir maromda ma’lum tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishida zarur bo‘ladigan omillardir. Ular tadqiqotchining u yoki bu tarix maktablari, falsafiy yo‘nalishlarga mansubligi va dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkuridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tamoyillar uslublar bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adashtirish holatlari ham uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish o‘rinliki, tamoyillar uslublarga nisbatan bir muncha murakkab va keng tushuncha bo‘lib, bir tamoyil o‘ziga bog‘liq holda bir necha uslublarni shakllantirishi mumkin, ayni vaqtda esa bir uslub bir necha tamoyillarga xizmat qilishi mumkin.

Tarixiy bilish tamoyillari deganda nimalarni tushunish yoki tushuntirish kerak, degan savol tarixchilar o‘rtasida uzoq vaqt mobaynida bahs-munozaraga sabab bo‘lib keldi. Mavjud barcha tamoyillardan tarix fanining deyarli hamma yo‘nalishlari va tarmoqlarida ustuvor tamoyillar sifatida foydalaniladi. Quyida tarixchilar tomonidan tadqiqotlar jarayonida ko‘proq qo‘llaniladigan va nisbatan samaraliroq bo‘lgan tamoyillar haqida so‘z yuritiladi. Biroq ularni umumiy qabul qilingan tamoyillar deb qat’iy fikr bildirish mumkin emas. Har bir tarixchi o‘z tadqiqotlari jarayonida tadqiqot mazmunidan va mohiyatidan kelib chiqqan holda tadqiqot natijasi uchun samaraliroq bo‘lgan tamoyillardan foydalanishi mumkin.

## 5. Sababiylik tamoyili (Determinizm tamoyili).

Sababiylik g‘oyasi yangi davrda o‘rta asrlardagi Uyg‘onish davriga xos bo‘lgan bashoratchilik g‘oyasi va voqealarning “tasodifiyligi” g‘oyasi o‘rniga paydo bo‘ldi. Sababiylik tamoyili fransuz va nemis ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan. Ular *tarix - tartibsiz tasodiflardan iborat* degan g‘oyaga qarshi chiqdilar. Ma’rifatparvarlarning *determinizm tamoyili* qat’iy mazmunga ega bo‘lib, u tarixda tasodiflar bo‘lishi mumkin degan qarashlarni butkul inkor qilib xatolikka yo‘l qo‘ydi. XIX asrda shakllangan evolyusion (tadrijiylik) uslubi (pozitivistlar va marksistlarning qarashlarida) sabab va oqibatlarning uzluksiz ketma-ketligiga asoslangan edi.

*Determinizm tamoyili* tadqiqotchining e’tiborini tarixiy hodisalar va voqealarning shartli ravishda o‘zaro bir-biriga bog‘liq ravishda sodir bo‘lishiga qaratadi. Bu tamoyilga ko‘ra barcha voqealar va hodisalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Tarixchi tadqiqot jarayonida tarixiy voqealar va hodisalarning sababi – oqibatlariga ko‘ra aloqadorligini, u yoki bu hodisalarning sodir bo‘lishiga turtki bo‘lgan omillarni aniqlashga e’tibor qaratish talab etiladi. Bunda tizimli yondashuv yordamida tuzilishdagi aloqadorlik o‘rganiladi.

Ko‘pgina tarixchilar o‘z tadqiqotlarida tarixiy voqelarning sababini aniqlashga harakat qiladilar va bu tarixdagi zaruriyatlar va qonuniyatlar aloqadorligi mavjudligining e’tirof etilishidir. Biroq bugungi kungacha tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarining mavjudligini inkor etuvchilar

[13] Баринова Е.П., Ипполитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. 2010.

*determinizm tamoyilini* ham inkor qiladilar va tarixiy voqealarning, hodisalarning tasodifiy ekanligiga urg‘u berib, determinizm (sababiylik) tamoyili inson erkinligi omili bilan mos kelmasligini ko‘rsatadilar. To‘g‘ri, tarixda tasodifiy va oldindan aytib bo‘lmaydigan voqealar va hodisalar ham ro‘y berishi mumkin, inson tanlash huquqiga ham ega, biroq u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun imkon bermaydigan yoki murakkablashtiradigan boshqa insonlar va jamiyatdagi turli tizimlar bilan to‘qnash kelishi yoki munosabatga kirishishini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

*Determinizm tamoyiliga* ishonchsizlikning asosiy sabablaridan yana biri tarixdagi voqealarning sabab-oqibat aloqadorligini ochib berishning murakkabligidir. Kamdan – kam hollarda tarixiy voqealar bir yoki ikki sabab bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va bunda bir qator omillarni ko‘rsatib berish va aniqlash talab etiladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, pozitivistlar *“teng xuquqli” omillar* (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqalar) *nazariyasini* ilgari surganlar. Ularning ta’kidlashicha, bu omillar tarixchi tomonidan birdek o‘rganilishi kerak (ya’ni tadqiqot jarayonida bu omillarning barchasiga birdek, teng va mutanosib munosabatda bo‘lish kerak) va tadqiqot jarayonida u yoki bu omilni bir-biriga nisbatan darajasini pasaytirishi yoki birontasi boshqasidan ustun bo‘lishi yoki asosiy va hal etuvchi omil sifatida ko‘rsatilishi mumkin emas. Amalda esa pozitivistlar tarixiy taraqqiyotning sodir bo‘lishini belgilab beruvchi omillarga mukammal omillar sifatida yondashganlar.

Aslida bu tushunchalar birmuncha murakkabdir. ***Sabablarning*** bir qancha ***darajalari*** mavjud. Masalan, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq (alohida) ***konkret, aniq va ravshan, tushunarli sabablar*** (masalan, XIX asrning 60-yillarida Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligiga (keyinroq Buxoro amirligi va Xiva xonligiga) qarshi urush e’lon qilishi va uni bosib olishi) bo‘lsa, ikkinchidan ***alohida maxsus*** sabablar ham mavjud ( yuqoridagi misoldan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hududlarining kengaytirib borishi siyosati) bo‘lib, shuningdek ***umumiy sabablar*** (masalan, Rossiya imperiyasining XIX asrda boshqa mustamlakachi mamlakatlar kabi dunyoni ta’sir doiralariga bo‘lib olish siyosati) mavjuddir. Albatta yuqorida aytib o‘tilganidek, iqtisodiy, siyosiy, strategik, psixologik, mafkuraviy va boshqa sabablar bu jarayonlarning sodir bo‘lishida omil (sabab) bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tarixchilar tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi va sodir bo‘lishi jarayonlarini o‘rganar ekanlar, bir omil yoki sababni asosiy omil yoki sabab sifatida ko‘rsatmaydilar (yoki asoslanmaydilar), balki bir qancha omillar (sabablar) yoki ayni vaqtda bir guruh sabablar va omillarga asoslanadilar, shu sababli bir tarixiy voqea va jarayonlar yuzasidan tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarning fikrlari tadqiqot uchun omil bo‘lgan asosiy sabablardan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lishi (birida siyosiy jarayonlarga asosiy e’tibor qaratilgan kengroq tahlil etilgan bo‘lsa, boshqasida iqtisodiy, yana birida ijtimoiy va madaniy va h.k.) mumkin.

Tarixiy jarayonlarning sabablarini aniqlash borasidagi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlardan ham murakkabroq bo‘lgan holatlar bu eng mashhur davlat va jamoat arboblarining hatti-harakatlari va faoliyatlarining sabablarini aniqlash jarayonidir. Chunki tarixning borishidagi ayrim holatlarga ma’lum darajada ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan bunday arboblarning o‘zlariga ham u yoki bu omillar ta’sir o‘tkazib turadi. Shu sababli ham tarixda biron-bir tarixiy shaxsning faoliyatini o‘rganish eng murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Bunday holatlarda ham tarixchilarning fikrlari bir-biridan farqlanishi mumkin.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, tarixiy voqelikni aniqlashda uning sabablari va oqibatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash tarixiy jarayonlarni tushuntirib berishning eng asosiy vositasi sanalgan. U juda murakkab tushuncha bo‘lib, bugungi kungacha tarixiy muammolarda uning mohiyatini tugal ma’noda va mukammal darajada ta’riflash imkoni bo‘lmagan. ***Postmodernistlar*** de*terminizm tamoyilini* qat’iy ravishda inkor qiladilar va tarixga uzuq-yuluq, bir-biri bilan bog‘lanmagan tarqoq jarayonlar sifatida munosabatda bo‘lib, tarixchilar bunday tarzda kechuvchi jarayonlar va ularning mohiyatini hech qachon anglay olmaydilar, degan g‘oya bilan munosabatda bo‘ladilar. Biroq bunday qarashlar tarixchilar tomonidan hech qachon ma’qullanmagan.

## 6. Xolislik (ob'ektivlik) tamoyili.

Mazkur tamoyilga ko'ra tarixiy voqelik ob'ektivdir, tarixiy faktlar (dalillar) va manbalar ob'ektiv mazmunga ega bo'lib, tarixiy tafakkur yordamida ob'ektiv haqiqatga erishish mumkindir. Agar tarixchi bu tamoyilga amal qilmasa, tarixiy tadqiqotni amalga oshirishidan samara bo'lmaydi va xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Bu masalada dastlab XIX asrda nemis tarixchisi L.Ranke tarixchilarga murojaat qilib, tarixni ob'ektiv (xolislikka amal qilgan holda, xolisona yondashib) o'rganishga chaqirdi. Uning fikricha, "tarixchi o'tmishni taftish qilib (aynan "sud qilib") kelajak foydasi uchun zamondoshlarni o'rgatish emas", balki faqatgina tarixiy jarayonlarni tadqiqot uslublaridan foydalangan holda va tarixchilarning tanqidlariga amal qilgan holda qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatib berishi kerak. Bu amalga oshishi murakkab bo'lgan ideal tadqiqot, biroq uni to'liq ravishda amalga oshirishga harakat qilish tarixchi uchun zarurdir". L.Rankening Germaniyadagi kasbdoshlari uning bu fikrlariga qo'shilmadilar va tarixchi siyosatdan chetda turishi mumkin emas, degan qarshi fikr bildirdilar. G.Treychkening fikricha, "tarixchi "faqatgina qabrda yotganida" siyosatdan (yoki siyosiy mansublikdan) holi bo'lishi mumkin".

XX asr davomida yevropalik faylasuflar tomonidan ham ob'ektivlik (xolislik) tamoyilini inkor qilish va uni turlicha talqin qilish holatlari davom etdi. Sub'ektivlik va relyativizm keng tarqalib, ommalasha boshladi. Biroq XX asrning 70-yillaridan boshlab postmodernistlarning tarix fani haqidagi fikrlari va qarashlari, bir qator ilmiy-nazariy yondashuvlari ilgari surila boshlagach ob'ektivlik (xolislik) tamoyiliga qarshi yana bir "hujum" yuzaga keldi, ya'ni, postmodernistlarning "tarixchilar hech qachon ob'ektiv haqiqatga erisha olmaydilar va bu boradagi harakatlari samarasiz yakun topadi" deb ta'kidlaydilar.

Biroq tarixchilar postmodernistlarning bu fikrlarini to'liq inkor qiladilar va hech qachon tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishi va uni amalga oshirishdan to'xtamaydilar, bu asrlar davomida tarixchilar tomonidan amalga oshirilgan tarix asarlarining yaratilishi va ulardagi tarixiy jarayonlarning yoritilishi va keyingi davrlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning ilmiy xulosalaridan ham anglash mumkin. Agar tanqid asosli bo'lsa, u har doim tarixchilar tomonidan inobatga olinadi va bunda tarixchilar albatta tarixiy haqiqatning (tarixiy xolislikning) qaror topishi va ilmiy jihatdan asoslanishi hamda tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlarini amalga oshirilishi uchun yangi uslublarni izlab topishga (shakllantirishga) va ularni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladi. Bunda tarixchiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan bir qator omillar (siyosiy, milliy, diniy, ijtimoiy va boshqalar) ham borki, ular ham ba'zida tarix tadqiqotlarida o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin, bunday hollarda bildiriladigan tanqidlar tarixchiga eng to'g'ri yo'nalishni tanlab olishi uchun turtki bo'lishi shubhasizdir.

Tarixchi tadqiqot ob'ekti, tarixiy voqelik yoki jarayon va hodisalarni har tomonlama o'rganishi lozim. Bilish ob'ekti har doim tarixiy jarayonning bevosita ishtirokchisi bo'ladi, jarayonning butun mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Tadqiqot jarayonida xolislikka (ob'ektivlikka) erishish uchun bilish sub'ektining faolligi hamda kuzatuvchanligi, keng mushohada yurita olishi, tafakkuri va bilishga intilishi, tadqiqotlardagi barcha uslublarni, ayniqsa fanlararo yondashuv uslublarini qo'llashi katta yordam beradi.

## 7. Tarixchiga zarur bo'ladigan omillar

Tarixchiga zarur bo'ladigan omillar bu – yuqori darajadagi professionallik (yuqori darajadagi kasbiy mahorat va bilim), keng tafakkuri va chuqur aql-zakovatga egaligi, tadqiq etilayotgan davr (tadqiq etilayotgan tarixiy davrlar) insonlari (insoniyat) oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va ayni vaqtda mas'uliyatni his eta olishi, ayni vaqtda kasbdoshlari oldida va qolaversa, zamondosh kishilar oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va mas'uliyatni his eta olishi hisbolanadi. Shu bilan birga tarixchining faolligi, manbalardagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga jalb qilinishi, modellashtirish va boshqalar jarayonida o'zboshimchalik va xatolikka yo'l qo'ymaslik ham tarixchi oldiga qo'yiladigan muhim talablardan sanaladi.

Tadqiqotchi agar tarixiy tadqiqot ob'ekti yoki tadqiq etilayotgan material bilan yakkama-yakka qolgandagina (boshqa ta'sirlarga uchramagan holda) uning tadqiqot jarayonidagi o'rni

muhim ahamiyatga ega boʻladi, bunda tarixchi tadqiqotchining haqqoniyligi va isteʼdodidan tadqiqotning natijasi yuzaga chiqadi.

B.Kroche, R.Kollingvudlarning taʼkidlashicha, tarix tabiatdan farqli oʻlaroq tadqiqotchining ongida obʼektiv tarzda aks etmaydi. Tarixga va tabiatga aloqador faktlar tushuncha sifatida aynan bir xil maʼnoni anglatmaydi.

Tabiatga aloqador faktlar shunday faktlarki, olim yoki tadqiqotchi ularni ayni koʻrinishida qabul qilishi yoki labaratoriyada hosil qilishi mumkin.

Tarixiy faktlar esa oʻtmishda va maʼlum bir vaziyatlarda sodir boʻlgan va takrorlanmas hodisalar sifatida namoyon boʻladi. Ular bevosita muomalaga kiritilgandan soʻnggina tarixiy mushohada obʼektlariga aylanadi. Bu holatda tarixchining ixtiyorida faqatgina hujjatlar va boshqa qadimgi davrlar qoldigʻi sifatida saqlanib kelgan narsalar yoki hodisalar boʻlib, tarixchi ularga asoslangan va tayangan holda faktlarni qayta shakllantirishi lozim. Aynan mana shu jarayonlarda tarixiy bilishning oʻziga xosligi namoyon boʻladi.[14]

## 8. Tarixiylik tamoyili.

Tarixiylik tamoyilining shakllanishi va taraqqiy etib borishiga bir qator mutafakkirlar oʻz hissalarini qoʻshganlar, biroq ularning orasida asosiy fikrlar nemis “xuquq tarixi maktabi” vakillari, fransuz restavratsiyasi davri tarixchilari va G.Gegel tomonidan bildirilgan.

G.Gegelning tarixiylik tamoyilining rivojlanishiga qoʻshgan hissasi ***dialektik uslubni*** asoslab berganligida edi. K.Marks tarixni materialistik tushunish gʻoyasini shakllantirib, G.Gegelning dialektik uslubini materialistik asosga yoʻnaltirdi, nemis “xuquq tarixi maktabi”ning tarixiylik tamoyilini “kengaytirgan” holda jamiyatning qayta shakllanishi (boshqa shaklga oʻtishi - formatsiya) va “kapitalizmning tanazzuli” haqidagi fikrlarni ilgari surdi. Nemis “xuquq tarixi maktabi” vakillari bu masalada amaldagi davlat va xuquq shakllari siyosatchilarning volyuntarizmi (tarixiy taraqqiyotning obʼektiv qonunlari bilan hisoblashmay, oʻz bilganicha ish tutish) oqibatlari emas, balki uzoq davom etgan “jonli” (organik) taraqqiyot va nemis “ruhi”ning paydo boʻlishidan kelib chiqib yondashganlar. Zamonaviy davlatni tushunish va uning faoliyatini anglash uchun eng avvalo uning tarixini oʻrganish lozim. Aynan ana shu tushuncha tarixiylik tamoyili edi, yaʼni har qanday hodisani, tarixiy voqelikni, davlat muassasalarining taʼsis etilishini tushunish uchun eng avvalo ularning tarixini oʻrganish va tarixiylikdan kelib chiqqan holdagina ularni anglash mumkin, degan tushuncha shakllangan edi.

Tarixiylik tamoyiliga qoʻyiladigan asosiy talablar haqida soʻz yuritganda quyidagilarni alohida koʻrsatib oʻtish kerak:

- hodisalar oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik va ularning kelib chiqishi hamda roʻy berishidagi umumiy bogʻliqlik va kelib chiqish sabablaridagi oʻzaro aloqadorlikni aniqlash;
- hodisalarning sodir boʻlishi bosqichlaridagi oʻzaro aloqadorlik, bir hodisa yoki jarayonning ikkinchi hodisa yoki jarayonning kelib chiqishidagi taʼsirini oʻrganish va aniqlash;
- barcha hodisalar va jarayonlarni oʻrganishda ularga tarixiylik nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda yondashish;
- hodisalar oʻrtasidagi aloqadorlikni aniqlashda jarayonlarning tarixiy ahamiyatini koʻrsatib berish.

Bu hozirgi tarixiylik tamoyili va uslublarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

## 9. Tizimlilik tamoyili.

XX asrga kelib barcha fanlar tadqiqotlarida *tizimlilik uslubi*dan foydalanish asosiy oʻrin tutib bora boshladi, bunda tadqiqot obʼektiga sababiylik va vazifaviy aloqadorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab tuzilmali tizim sifatida qaraldi. M.A.Barg tomonidan fanga *tizimlar* (sistemalar) va *tuzilishilar* (strukturalar), *tizimlar tarkiblari* (podsistema) haqidagi tushunchalar kiritildi. *Tuzilish* – bir tizimni tashkil etuvchi hodisalar aloqadorligi va ularni bir tartibga solish shakllari boʻlib, u tarixchi eʼtiboridan yashirin holda boʻladi. Shu oʻrinda mazkur tarixchi tomonidan “*tuzilishi va jarayon*” tushunchasi ham ilgari suriladi, bunda *tuzilish* oʻzgarmas va

[14] История исторического знания. 208 - б.

barqarorlik holat sifatida, *jarayon* esa o‘zgaruvchan va beqaror, doimiy harakatdagi holat va ular bir – birini to‘ldirib keladi deb ko‘rsatiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Tarixiy bilish tamoyillarini sharhlab bering.
2. Bilishning sub’ekti nima?
3. Bilish sub’ektining faolligi nima?
4. Ob’ektivlik tamoyilini sharhlab bering.
5. XX asrda ob’ektivlik tamoyiliga xujum qanday tushuncha?
6 Sababiylik tamoyilini tushuntirib bering.
7. Tasodiflar, tartibsizliklar, tarixiy voqealarning sabablari tushunchalarining mazmuni?
8. Sabab va oqibat aloqalarini ochishning murakkabligi nima?
9. Tarixiylik tamoyilini tushuntirib bering
10. Tuzilish va jarayon tushunchalari?
11. Tarixning fan yoki san’at ekanligi borasidagi qarashlar haqidagi fikringiz?
12. Tadqiqot ob’ektining o‘ziga xosligi?
13. Bilishning retrospektiv xarakteri deganda nimani tushunasiz?
14. Ikki karra sub’ektlangan bilim nima?
15. Tarix fanining kompleks xarakterliligi nimalarda aks etadi?

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASh BO‘YIChA SAVOLLAR:**
**(savolga mos javobni aniqlang)**

| t/r | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | ..... ning fikricha, tarix bilimlarining maqsadi – bizning bugunimizni (aslimizni) aniqlashdir. | K.Yaspers |
| 2 | .... larning ta’kidlashicha, tarix tabiatdan farqli o‘laroq tadqiqotchining ongida ob’ektiv tarzda aks etmaydi. | B.Kroche, R.Kollingvud |
| 3 | XIX asrda nemis tarixchisi …. tarixchilarga murojaat qilib, tarixni ob’ektiv (xolislikka amal qilgan holda, xolisona yondashib) o‘rganishga chaqirdi. | L.Ranke |
| 4 | …. ishonchsizlikning asosiy sabablaridan yana biri tarixdagi voqealarning sabab-oqibat aloqadorligini ochib berishning murakkabligidir. | Determinizm tamoyiliga |
| 5 | Tarixiy bilishning asosiy maqsadi – …. va .... , tizimli, konkret jamiyatning taraqqiyotidagi tarixiy jarayon haqidagi konkret bilimga va ilmiy jihatdan asoslanilgan tarixiy haqiqatga erishish hisoblanadi | ob’ektiv va xolis |
| 6 | ..... ning fikricha, tarixiy bilish ikki karra sub’ektlangan bilimdir | I.Kovalchenko |

**MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

1. **Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar....?**
   **A.** yuqori darajadagi professionallik
   **V.** yuqori darajadagi kasbiy mahorat va bilim
   **S.** A va B
2. **Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar....?**
   **A.** keng tafakkuri va chuqur aql-zakovatga egaligi, tadqiq etilayotgan davr (tadqiq etilayotgan tarixiy davrlar) insonlari (insoniyat) oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va ayni vaqtda mas’uliyatni his eta olishi
   **V.** ayni vaqtda kasbdoshlari oldida va qolaversa, zamondosh kishilar oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va mas’uliyatni his eta olishi hisbolanadi.

**S.** A va B

**3.** **Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar....?**

**A.** tarixchining faolligi

**V.** manbalardagi ma’lumotlarni ilmiy muomalaga jalb qilinishi, modellashtirish va boshqalar jarayonida o‘zboshimchalik va xatolikka yo’l qo‘ymaslik

**S.** A va V

**4.** **Moddiy va ma’naviy olam hodisalarining ob’ektiv qonuniyatli o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, narsa va hodisalarning sababiy bog‘lanishlari haqidagi falsafiy ta’limot....?**

**A.** Volyuntarizm

**V.** Determinizm

**S.** Relyativizm

**5.** **..... tadqiqot ob’ektini sub’ektdan, dalillarni uydirmadan alohida ajratmaydilar va ob’ektiv haqiqatga erishishni shubha ostiga qo‘yadilar?**

**A.** Relyativistlar

**V.** Postmodernistlar

**S.** Pozitivistlar

**6.** **..... inson tarixni ijod qiluvchi, uni shakllantiruvchi omildir, inson tarixiy jarayonda o‘ziga zarur va o‘zi hohlagan jamiyatni barpo eta olishi mumkin deb hisoblaydilar.**

**A.** Volyuntaristlar

**V.** Postmodeonistlar

**S.** Pozitivistlar

**7.** **...........ning tarixiylik tamoyilining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi dialektik uslubni asoslab berganligida edi.**

**A.** G.Gegel

**V.** A.Toynbi

**S.** A.Barg

**8.** **Mazkur tarixchi tomonidan “tuzilishi va jarayon” tushunchasi ham ilgari suriladi, bunda tuzilish o‘zgarmas va barqarorlik holat sifatida, jarayon esa o‘zgaruvchan va beqaror, doimiy harakatdagi holat va ular bir – birini to‘ldirib keladi deb ko‘rsatiladi.**

**A.** G.Gegel

**V.** A.Toynbi

**S.** A.Barg

**9.** **............ uslublar bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adashtirish holatlari ham uchraydi.**

**A.** Tamoyillar

**V.** Tizimlar

**S.** Talqinlar

**10.** **Qaysi tushunchada mavhumlik keng ma’noda bilimning “qashshoqligi”, bir tomonlamaligi, konkretlik esa uning to‘liqligi, mazmundorligi sifatida tushuniladi?**

**A.** Dialektikada

**V.** Determinizmda

**S.** Tizimlilikda

**11.** **Tarix fanini xam pozitiv bilim berishga layoqatli deb hisoblovchilar kimlar?**

**A.** Neokantchilar

**V.** Pozitivistlar

**S.** Antistsientistlar

**12.** **Tarixning asosiy vazifasi qonuniyatlarni ochish emas, balki tarixni tashkil etuvchi alohida, individual, takrorlanmas hodisalarni o‘rganish deb hisoblovchi yo’nalish kaysi?**

**A.** Neokantchilar

**V.** Antistsientistlar

**S.** Marksistlar

**13.** **Tarix fanining asosiy xususiyati nima?**

**A.** Tadqiqot ob’ekti,ya’ni o‘tmishda sodir bo‘lganligidir.

**V.** Ob’ektiv haqiqatga erishish muammosi.

**S.** Interpretatsiya

**14.** **Tarix fani vaqt nuqtai-nazaridan…?**

**A.** Tarixchi hozirgi zamonda turgan holda tarixiy jarayonga chuqur kirib boradi.
**V.** Olis oʻtmishdagi obʼektni harakatga keltirishi kerak
**S.** Voqealar tizimini shakllantirishi va modellashtirishi kerak

**15.** **Tarixiy bilishning ikkinchi xususiyati nima?**
**A.** Hozirgi kun nuqtai-nazaridan oʻtmish haqida xulosa chiqaradi
**V.** Tarixchi hozirgi zamonda oʻtmishni aynan shakllantiradi
**S.** Tarixchi xozirgi zamonda turgan holda oʻtmishni tadqiq etadi

**16.** **“Tarix barcha davrlarda ayni oʻsha zamon nuqtai-nazaridan yozilgan” - bu qaysi yoʼnalishdagilar fikri?**
**A.** Antistsientistlar
**V.** Marksistlar
**S.** Prezentistlar

**17.** **Interpretatsiya nima?**
**A.** Sharhlash, izohlash, tushuntirib berish, talqin qilish
**V.** Koʻp maʼnolilik
**S.** Narsa va hodisalarning sababiy bogʻlanishlari haqidagi materialistik taʼlimot

**18.** **”Tarixiy bilish ikki karra subʼektlangan” - degan fikrni kim bildirgan?**
**A.** E.Tomson
**V.** E.Xobsboum
**S.** I.Kovalchenko

## Adabiyotlar


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. T.: “Maʼnaviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “Oʻzbekiston”, 2011.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bagʻishlangan majlisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq soʻzi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: Oʻzbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: Oʻzbekiston, 2017. - 48 b
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 488 b.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. www.lex.uz.
9. Ilhomov Z. Abu Rayhon Beruni va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari. Tarix, taʼlim va xotira. Ilmiy maqolalar toʻplami. T.TDPU. 2015. 151-155-bb
10. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi (tarixiy bilish, tarixiy ong va tarixiy xotira). T.TDPU. 2015.
11. Ilkhamov Z.A. The Logical Theory of Evidence-Based Interpretation (scientific source analysis). Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol 10 No 1 (2020)
12. Rajabov R va boshq. Tarix fani metodologiyasi (darslik). Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2018.
13. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. Toshkent, “Istiqlol”. 2013.
14. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.I. Istoricheskoe soznanie. T.: “Oʻzbekiston”. 2008.
15. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.II. Fenomen djadidizma. T.: “Oʻzbekiston”. 2009.
16. Ilhomov Z. Sharq tarix falsafasi haqida muloxazalar. Ilk oʻzbek davlatchiligi tarixi. Respublika

ilmiy konferensiyasi. T. 2010 y
17. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent, TDPU rizografi. 2013.
18. Ilhomov Z.A., R.Mulladjanova Zamonaviy tarix fanining ayrim nazariy masalalari (konsepsiyalar, nazariyalar va ilmiy qarashlar). Tarix fani metodologiyasi va tarix ta’limining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Navoiy sh. NavDPI. 2019. 31-34-bb

## 4-MAVZU. TARIXIY MANBALAR VA TARIXIY DALIL. DALIL VA UNING ILMIY-TAHLILIY MASALALARIGA OID AYRIM ILMIY-NAZARIY QARAShLAR.

1. Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni.
2. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot. Belgilangan va belgilanmagan axborot. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi.
3. Tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi. Dalil. Tushuncha to‘g‘risidagi bahslar. Tarixiy dalil tizimi, tarixga ta’sir etish omillari va mohiyati.

**Tayanch tushunchalar:** Axborot, manba, yaqqol va yashirin axborot, belgilangan va belgilanmagan axborot, axborotning yetishish va yetishmasligi, ilk manba, birinchi axborot, asosiy manbalar, qo‘shimcha manbalar, tarixchining manbalardan tashqari bilimi.

### 1. Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni.

Tarixchi bugungi kungacha yetib kelgan manbalarga asoslangan holda o‘tmishni tasvirlab, uning ayrim ko‘rinishlarini “tiklab” beradi. Agar tarixiy manbashunoslik kursida manbashunoslikning turlari, klassifikatsiyasi, ularni tahlil qilishning tanqidiy usullari o‘qitilsa, tarix fani metodologiyasi kursida esa tarixiy manbalarning nazariy asoslari muammolari, uning tabiati, reprezentativ imkoniyatlari, manbalarning tadqiqotlardagi bilish vazifalari o‘rganiladi.

Tarixiy manba tushunchasi tarix fanlari orasida alohida, muhim ahamiyatga ega tushunchalardan sanaladi. Manba o‘tmish haqida xabar (guvohlik) berib, o‘tmish tarixiy jarayonlarni o‘rganishda xoh yozma shaklda, xoh ashyoviy (marosimlar, suratlar, belgilar, urf-odatlar va boshqalar) ko‘rinishda eng asosiy va muhim omillardan sanaladi. Tarixchilarning umumiy e’tirof etishicha, tarixiy manbalarsiz tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin emas.

Manbalardagi axborotga asosan tarixchi o‘tmish qiyofasini (tarixiy jarayonlarni, hodisalarni, voqealarni, shaxslar va ular bilan bog‘liq jarayonlar haqidagi ma’lumotlar kabilarni) shakllantiradi. Ko‘p hollarda o‘tmish manzarasining aks ettirilishi tarixchi tomonidan tanlab olingan manbalarga, ularning ilmiy va axborot salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Turli davrlarda tarixiy manbalarga turlicha baho berilganligini kuzatish mumkin. Masalan, XIX asr tarixchi pozitivistlari asosan manbalarning rasmiyligi darajasiga (qonuniy aktlar, diplomatik mazmundagi hujjatlar, xuquqiy hujjatlar kabilar) asosiy e’tibor qaratganlar va bunday manbalar tarixiy jarayonlarni eng to‘laqonli va ishonchli aks ettiradi deb hisoblaganlar.[15]

XIX asrning birinchi yarmidagi “klassik manbashunoslik”da (B.Nibur, L.Ranke) manbalarga o‘tmishning xaqiqiy guvohi sifatida munosabatda bo‘lingan. Bunda tarixchi tomonidan manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni tavsiflash bilangina cheklanganilgan va tarixchining ijodiy fikrlashi va tafakkuriga e’tibor qaratilmagan yoki yetarli baho berilmagan. Tarixchilar tor doiradagi manbalardagi ma’lumotlar bilan cheklangan holda tadqiqotlarda asosiy urg‘uni manbalardagi hujjatlarga qaratilgan.

Pozitivistlar tarixni “ijobiy” fanlar qatoriga ko‘tarish maqsadida harakat qilib, tarixchidan hujjatlar ichidagi dalillarni ajratib olishni asosiy vazifa sifatida ko‘rsatdilar. Manbalarning tahlili metodlarini yaratish dolzarb vazifalardan biriga aylanib, falsafiy masalalar

[15] История исторического знания. 32-б.

"chetga surib" qo'yildi. "Manba" iborasi o'rniga insonlarning faoliyati va fikr-qarashlari natijasida yuzaga kelgan "iz" iborasi qo'llanila boshlandi. Bunda faoliyat e'tibordan chetda qolib, hissiyotlar va fikrlarning aksi haqida gapirila boshlandi, natijada tarixchi tadqiqot jarayonida manba muallifining fikrlari bilangina cheklanib qolib, uning taassurotlarini qaytadan shakllantira boshladi. Pozitivistlar manbalarning birlamchiligini tarixchining tafakkuri va fikrlashidan ustun qo'ydilar, "hujjat yo'q bo'lsa, tarix ham mavjud emas" g'oyasini ilgari sura boshladilar. Nazariyaga yetarli baho berilmasligi empirizmga olib keldi, tarixchiga faktlarning qayd etuvchisi deb qaraldi. Hujjatlar esa o'tmish haqida real ob'ektiv ma'lumot beruvchi manba hisoblandi.

XIX asrning oxirlariga kelib fandagi mavjud vaziyat o'zgardi. Manbalar va real voqelik o'rtasidagi, tarixchining manbalarga bo'lgan munosabati avvalgi davrlarga qaraganda birmuncha murakkablashdi. Bu vaqtga kelib tarixchilar hech qanday fakt yoki dalil manbalarda tayyor holda uchramasligi va mavjud bo'lmasligini tushunib yetdilar. "Dalilga sig'inish" va "hujjatlarga sajda qilish"ni tanqid qila boshladilar. Manbalar va dalillarga munosabatning bu tarzda o'zgarishi esa manbalarning ob'ektivligini shubha ostida qoldira boshladi. Ko'pgina tarixchilar va hatto faylasuflar ham manbalarning tahlili jarayonida ijodiy yondashuv zarurligini tan ola boshladilar. Manbalarni chuqurroq o'rganish ko'proq ma'lumot olish imkonini bera boshladi. Biroq endi bu holatda, ya'ni "dalillarning ilohiylashtirilishi"ni tanqid qilish jarayonida tarixchilar ikkinchi boshqa bir muammoga, ya'ni endi tarixchining fikrlarini "ilohiylashtirilishi" va aksincha manbalardagi ob'ektivlik xususiyatining inkor qilinishiga olib keldi. Manba mazmunining tarixchi tafakkuridan kelib chiqqan holdagi bog'liqlik haqida ta'kidlana boshlandi. Bu yo'nalish tarix falsafasining "tanqidiy" yo'nalishi hisoblanadi. B.Kroche tarixiy manbalar tarixchining tafakkuri va ongidan tashqarida mavjud bo'lmaydi, deb hisobladi. Tarixchining fikrlarisiz hujjatlar o'likdir, amalda tarixiy manba tarixiy ong ichida, uning tarkibiga aylanib ketadi. Biroq, B.Kroche fikrining tarafdorlari tarixiy manbaning ob'ektiv mazmunini inkor qilgan holda uni tarixchining fikriga va tafakkuriga bog'liq qilib qo'ydilar.

Angliyalik tarixchi A.Marru pozitivistlarning tarixchini faktlarning qayd etuvchisi sifatida bergan bahosiga keskin qarshi chiqib, tarix bilish sub'ektining, tarixchining ijodiy mehnati mahsuli, deb baho berdi. Biroq bu fikri bilan u ham xatolikka yo'l qo'ydi, ya'ni tarixchi manbani yaratadi, deb aytgan fikrini ko'pgina tarixchilar inkor qildilar.

E.Karr tadqiqotlarda tarixchining o'rnini bo'rttirishga qarshi chiqib, bu ob'ektiv xulosalar chiqarilishini shubha ostiga qo'yadi, deb fikr bildirdi.

XX asr fransuz tarixchisi Lyusen Fevr manbalar haqida so'z yuritib, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: - "Tarix, shubhasiz yozma manbalar asosida yaratiladi. Qachonki ular mavjud bo'lsa. Biroq tarix yozma manbalarsiz ham yaratilishi mumkin, qachonki ular mavjud bo'lmasa. Qachonki kerakli gul bo'lmasa, asal boshqa mavjud gullardan ham yig'ilishi mumkin. Shu kabi tarixchi ham boshqa manbalardan ma'lumot olishi mumkinki, bular so'z yoki belgilar, manzara yoki tasvir, Oy tutilishi yoki bo'yinchaning shakli, toshlar, metall yoki geologik tekshiruvlar, qo'yingki, insonga va uning faoliyatiga taalluqli bo'lgan barcha narsalar bo'lishi mumkin".[16]

Tarixchining manbadan qanday axborot olishi uning mazkur manba yuzasidan amalga oshiriyotgan tadqiqoti oldiga qo'yilgan savollardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Manba hech qachon "o'zi haqida o'zi gapirmaydi", biroq ayni vaqtda manbaning o'zi haqidagi ma'lumotlarni aynan o'sha manbaning o'zidan ham olinishi mumkin. Biroq bu ma'lumotlar aynan shu manba yoki uning muallifi (mualliflari) ga taalluqli bo'lgan holda, tadqiqot muammosiga aloqador bo'lmasligi mumkin.

Ingliz tarixchisi va faylasufi R.Kollingvudning fikricha, "dunyodagi barcha narsalar u yoki bu haqdagi muayyan ma'lumotlarni o'zi aks ettiradi".[17] Biroq shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, bu narsalar qachonki tarixchi tomonidan unga aniq bir "savol" berilgan taqdirdagina "guvohga" aylana olishi mumkin.

---

[16] Февр Л. Бои за историю. М, 1991. 22-б.
[17] Коллингвуд Р. Идея истории. Автобиография. М., 1980. 235-б.

Ayrim tarixchilar esa manbani ijtimoiy faoliyat mahsuli hamda ob'ektiv tarixiy voqelik aksining shakli deb hisobladilar. Ularning fikricha manbalar ijtimoiy hodisa bo'lib, ularda ijtimoiy munosabatlar aks etadi, manbaning o'zi esa ob'ektiv voqelikning sub'ektiv obraz (siymosi, qiyofasi, shakli) dir. Bu nuqtai-nazar tarafdorlarining e'tirof etishicha, manba tarixchiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi, faqatgina manbaning bilish jarayoniga jalb etilishi tarixchiga bog'liqdir. Tarixchi manbani yaratmaydi, balki undan ma'lumotlarni ajratib oladi.

N.Jo'raevning fikricha, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asosli emasligini aniqlash tarixiy tadqiqot uchun alohida mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manbani yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki to'plaganlar o'z manfaatlari doirasida, o'z maqsadlari va qiziqishlari chegarasida dalil to'playdilar. Barcha insonga xos bo'lgan bunday illat, jumladan tarixchilarni ham istisno etmaydi.[18]

**2. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot. Belgilangan va belgilanmagan axborot. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi.**

Manba tarixchiga o'ta zarur bo'lgan axborot tashuvchidir. Ko'p hollarda manbalardan olinayotgan ma'lumotlar tarixchini qoniqtirmaydi. Bunday holatlar tadqiqotchi va tarixnavis yoki manba muallifining maqsadlari bir-biriga mos kelmaganda, shuningdek tadqiqotchi uchun zarur ma'lumotlar manbada mavjud bo'lmaganda yuzaga keladi. Bunday holatda tarixchi yoki tadqiqotchi tomonidan boshqa manbalar tadqiqot uchun jalb etilib, ma'lumotlarning yetarli, asosli va ishonchli bo'lishi ta'minlanishiga harakat qilinadi. Manbalar ijtimoiy ma'lumotlar va axborotlar tashuvchisi bo'lganligi uchun bunda axborot haqidagi bilimlarni qo'llash o'rinlidir.

I.Kovalchenkoning fikricha axborot – dunyoda sodir bo'lgan turli hodisalarning tasviridir. Axborotning doimiy almashinuvi jamiyat hayoti va inson hayotini izga solib turilishining asosiy shartlaridan biridir.

Axborot ochiq ifodalangan va yashirin holatda (keyingisi ko'p uchraydi) bo'ladi. Axborot belgilar orqali, ko'p hollarda til (yozuv) tizimlari orqali ifoda etilishi, ayni vaqtda esa saqlanishi va yetkazib berilishi mumkin. Ob'ektiv ma'lumotlarning qo'lga kiritilishi sub'ektning bilish xususiyatlari, idrok eta olish layoqatiga bog'liq holda hamda qo'llanilayotgan tadqiqot metodlarining samarasiga bog'liq ravishda cheklanishi mumkin. Ayrim hollarda buzilgan, noto'g'ri talqin etilgan va xato ma'lumotlarni ham olish mumkin.

Axborot qayd etilgan va qayd etilmagan (og'zaki) bo'lishi mumkin. Turli narsalarga (tosh, charm(pergament), yog'och, sopol, qog'oz va boshq) qayd etilgan ma'lumotlar albatta og'zaki ma'lumotlarga nisbatan ishonchliroq bo'lishi tabiiy. Ma'lumot qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, biroq muhim bo'lmagan va ahamiyati kam bo'lgan ma'lumotlar tadqiqotchi tomonidan aniqlanib, ularni asosiy ma'lumotlardan ajratib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bundan axborotning yetarliligi masalasi kelib chiqadi va bularning hammasi manbalarning tahlili va tadqiqoti jarayonida e'tiborga olinishi lozim.

I.Kovalchenkoning ta'kidlashicha, manbaning yuzaga kelish jarayonining o'zi axborotlashish va axborotlashtirish jarayonidir. Manbaning yaratuvchisi yoki tarixnavis manbani yozish jarayonida aniq maqsadni qo'yadi va bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Manba muallifining o'zi voqelikning bir qismidir. Yaxshi yoki yomon manbalar bo'lmaydi, bular tadqiqotchining tahlilga yondashuvi va qo'llayotgan tadqiqot metodlarining samaradorligiga bog'liqdir.

Har qanday manba ikki tomonlama axborot tashuvchi xususiyatiga ega hisoblanadi. Birinchidan, muallifining tafakkuri va ongi mahsuli sifatida biz tadqiqot ob'ekti haqida ma'lumotga ega bo'lamiz, ikkinchidan, manbalar axborot beruvchi sub'ektini belgilaydi.

Har qanday manbada o'tmish taassurotlari va voqealarning tafsilotlari saralangan holda qayd etilishi tabiiydir. Bunda voqelarning to'laqonli tafsilotlari haqidagi tasavvurlar cheklanadi, bunday holatda tarixchi yoki tadqiqotchi umidsizlikka tushmasdan, manbalardagi axborotlarning

---

[18] Тарих фалсафасининг назарий асослари. 81-б.

tugallanmasligiga e’tibor qaratishi lozim. Bunda tadqiqotchi tomonidan manbalardagi qayd etilmagan va yashirin axborotlarni izlash va ularni tadqiqotga jalb eta olishi layoqati alohida o‘ringa ega. Bu o‘rinda yozma manbalardagi asosiy xususiyatlardan biri bo‘lgan manbaning tili masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### 3. Tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi. Dalil. Tushuncha to‘g‘risidagi bahslar. Tarixiy dalil tizimi, tarixga ta’sir etish omillari va mohiyati.

Tarixiy dalillarni aniqlash va ularning interpretatsiyasi zamonaviy tarix tadqiqotlarining asosiy omillaridan biri sanaladi. Tarixchi nafaqat professional mahoratga ega bo‘lishi kerak, balki tarixiy dalil yuzasidan o‘zining ilmiy qarashlariga ham ega bo‘lishi (qay tarzda qo‘llanilishi, tahlili qilinishi va dalillarni interpretatsiyalashi) talab etiladi. Tarix fani mavjud bo‘lgan barcha davrlarda “tarixiy dalil” tushunchasi yuzasidan bahs va munozaralar ham doimiy ravishda mavjud bo‘lgan. Bu haqda fikrlar shunchalik ko‘pki, ularni tarixiy ijodni shakllantirib beradigan “g‘ishtchalar”dan boshlab, tafakkur orqali shakllantiriladigan tasavvurlargacha ko‘rish mumkin. Biroq bu bahslar va munozaralar asoslanmagan quruq safsatalar emas, balki umumiy holatda tarixiy tafakkurni mukammalashtirib, yangi yondashuvlarning yuzaga kelishi va tarixiy tadqiqotlarda yangi uslublarning qo‘llanilishiga yo‘l ochib berdi.

Dalil tushunchasi tarixshunoslik nuqtai-nazaridan alohida maqomni, alohida ta’rifni, o‘ziga xos qoidani talab qiladi. Tarixchi dalil va va uning o‘ziga xos jihatlariga jiddiy yondashishi lozim. Har qanday tadqiqot jarayonida tarix tadqiqotchisi shunday holatlarga duch keladiki, bunda tarixiy tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan tadqiqotning mohiyati, uning ilmiy asoslanganligi dalillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda tadqiqotchi ma’lum bir tarixiy jarayon, voqelik yoki hodisa haqidagi xulosalarni isbot qilish, yoki aksincha uni inkor qilish, uchinchi holatda esa o‘z ilmiy xulosasini inkor qilib bo‘lmaydigan holatda ko‘rsata bila olishi va isbotlay olishida bevosita dalilga asoslanadi, o‘z-o‘zidan bu jarayonda dalil o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, savol tug‘iladi, dalilning o‘zi nima, tarixiy dalil qanday bo‘ladi, dalilni qanday tushunish lozim?

Tarix fani o‘zining bir necha ming yillik taraqqiyot yo‘lida tarixiy dalilga bo‘lgan munosabatni aniqlashtirib olish uchun birmuncha murakkab, ilmiy tafakkur, ilmiy bilish va ilmiy xulosalar chiqarish tajribalarini o‘tadi. Tarix fanininng ibtidosida tarixchining vazifasi asosan dalillarni yig‘ish bo‘lgan. Og‘zaki manbalar, afsonalar, rivoyatlar dastlabki vaqtlarda o‘tmishni tasvirlab beruvchi asosiy omillar bo‘lgan bo‘lsa, tarix fanining taraqqiyoti jarayonida dalil va unga bo‘lgan munosabat, dalilni tarix faniga va tarixiy voqealarning asoslab berilishiga jalb etilishi ham jiddiylashib, murakkablashib bordi. Aniq va muayyan sodir bo‘lgan tarixiy jarayon yoki hodisa haqida aniq dalillarni topish tarixchi oldidagi asosiy vazifalardan va muammolardan biriga aylandi.

G.Rikkert bu masalaga neokantchilarning tarixning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslab bergan nuqtai-nazaridan kelib chiqib yondashdi. U tarixchi dalillarga asoslangan sof xaqiqatni o‘z fikr-muloxazalariga asoslangan holda bayon qilishi kerak deb hisobladi. Tarixiy dalillar bir marta sodir bo‘ladigan holat bo‘lib, u individual xususiyatga ega va hech qachon takror sodir bo‘lmaydi. Dalillarning saralab olinishi me’yorlari uning “nodir”ligini asoslaydi.

Biroq fanning rivojlanishi shuni ko‘rsatdiki, dalillar tadqiqotning faqatgina asosiga emas, balki uning natijasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omildir. Dalillarsiz nafaqat umumlashtirish mumkin emas, balki ilmiy dalillarning o‘zi ham o‘zida umumiylikni ifodalaydi. Ingliz olimi F.Pauikning qarashicha, fanning *dalillari – bu fikr va mulohazalar tizimi bo‘lsa, umumlashtirish – mulohazalar haqidagi mulohazalardir.*

Tarixchi Ye.Topolskiy esa tarixiy dalillarni o‘zgaruvchan yaxlit tizim sifatida o‘rganib, bu tizim doimiy ravishda o‘zgarib va yangilanib turadi, dunyoqarashlar kengayib borgani sayin dalil orqali voqelik mohiyatining yangi qirralari ochilib borishi muqarrardir, degan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.

Amerikalik olim K.Bekker 1955 yilda har qanday oddiy dalillar o‘z tarkibida ko‘plab mayda va oddiy dalillarni ifodalaydi, degan fikr bilan chiqdi. Uning ta’kidlashicha, dalil – “bu aqliy

shakllantirilgan, belgi, minglab oddiy va sodda dalillarning yagona dalilga birlashtirilishi”dir. Dalillarda hech qanday ob’ektiv mazmun mavjud emas va u real tarixiy voqelikka mos kelmaydi. Bularning barchasi tarixchining ongida, shuurida, tasavvurida to‘qnashadi. K.Bekkerning yaqqol *relyativistik (voqelikni ob’ektiv ravishda bilish mumkinligini inkor etadigan metodologik g‘oya)* qarashlarini boshqa faylasuflar ham quvvatladilar. Xususan, fransuz R.Aron – “dalillar o‘z holicha mavjud bo‘lmaydi, dalil ong va tafakkur orqali shakllantiriladi va ong hamda tafakkur uchun bo‘ladi”, - deb hisoblaydi. Masalan, tarixchi

tasvirlayotgan tarixiy jarayonlar va voqealar uning ongida, tasavvurida hosil bo‘ladi, ya’ni tarixchining ongidan tashqari tarixiy reallik mavjud emas, deb hisoblaydi. Uning fikricha dalil (fakt) ixtiyoriy erkin holatda tarixchi tomonidan shakllantiriladi, tarixiy bilish esa nisbiy xususiyatga egadir. R.Aronning bu qarashlari tarixchilarni qoniqtirmadi va ular bu fikrlarni inkor qilib, bu uslubdagi yondashuvni asossiz deb hisobladilar.

G.M.Ivanov dalil tafakkur mahsuli bo‘lib, ob’ektiv reallikni va tarixiy voqelikni ifodalaydi, deb hisoblaydi. Tarixiy dalil tarixiy voqea bilan aynan bir xilda emas, ular bir-birini aynan takrorlamaydi, biroq ularni bir-biriga qarama – qarshi qo‘yish maqsadga muvofiq emas – sub’ektivlikka olib keladi. Dalillar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ob’ektiv va sub’ektiv holatda namoyon bo‘ladi. Faktning mazmuni predmetning mazmuni va tadqiqot jihati va xususiyatidan kelib chiqqan holda bir xillikka ega bo‘lmaydi.

I.Kovalchenko dalillarni uchta darajaga bo‘ladi: *tarixiy voqelikka aloqador dalillar, tarixiy manbalardagi dalillar (faktlar), tarixiy-ilmiy dalillar (faktlar).* Tarixchi tadqiqotlar jarayonida bu har uchala dalillar darajasini bir-biridan ajrata olishi kerak.

**Voqea va fakt** muhim tarixiy kategoriyalar hisoblanadi. Ko‘rinishidan oddiy mazmunga egadek ko‘rinsada, bu tushunchalarning mohiyati va mazmuni bir muncha murakkabdir. XIX asrning ikkinchi yarmidan bugungi kunlarga qadar tarixchilarning bu tushunchalarning mohiyati haqida bahslari davom etib kelayotganligi ham bu ikki tushunchaning tarix fani va uning tadqiqotlari jarayonida alohida muhim ahamiyat kasb etishi va ayni vaqtda ularning murakkabligini ko‘rsatib beradi.

**Voqea** - qachondir bo‘lib o‘tgan, sodir bo‘lgan holat. Bu holat aksariyat hollarda tarixchining tadqiqot jarayonidagi diqqat-e’tiborining asosiy markazida turadi. Aksariyat hollarda tarixni voqea bilan bog‘liq munosabatda tushuniladi. Ingliz tarixchisi va faylasufi Robin Jorj Kollingvud (1888-1943 yy) ning ta’kidlashicha, antik davrlardan boshlab tarix “*res gestae” (insonlarning o‘tmishda amalga oshirilgan faoliyati),* ya’ni eng mashhur siyosiy voqealar haqida hikoya qilish sifatida tushunilgan.[19]

Zamonaviy tarix fanida tarixchining vazifasi sifatida o‘tmish voqealarini aniq va ilmiy asoslangan, xaqqoniy va xolis yondashgan holda tavsiflash, tasvirlash, talqin qilish tushuniladi.

Tarixiy bilishda voqeaning turlicha interpretatsiyalari mavjud. Shartli ravishda ularni real va konstruktiv interpretatsiyalarga bo‘lish mumkin.

Nisbatan keng tarqalgan ***real interpretatsiya***ga ko‘ra o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarning barchasi o‘zining tarkibiy qismlari va tuzilishlariga ega bo‘lib, turli manbalarda qayd etilgan. Shu tariqa voqealar tarixchi uchun “xom ashyo” vazifasini o‘taydi. Bu holatda tadqiqotchining faoliyati xaqqoniylik nuqtai-nazaridan o‘tmish voqealari haqidagi mateiallarni va ma’lumotlarni talqin qilishda teng munosabat yondashuviga amal qilishi bilan baholanadi.

***Konstruktiv interpretatsiya*** tarafdorlarining ta’kidlashicha, voqea tadqiqotchidan alohida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lmaydi. Tarixchi turli manbalar bilan ishlash jarayonida muayyan bir xulosaga kelgan holda voqeaning intellektual konstruksiyasini yaratadi. Shu tariqa voqeani tarixchining aqliy faoliyati natijasi sifatida tushunish mumkin.

XIX-XX asr tarixchilarining fikrlariga ko‘ra “voqea” tushunchasi aksariyat holatlarda “fakt” tushunchasi bilan to‘qnash keladi. Umumiy holda aytish mumkinki, faktga voqeaning tasdiqlovchi omili sifatida qaralgan.

---

[19] Коллингвуд Р. Идея истории. Автобиография. М., 1980. 203-б.

***Tarixiy voqelikka aloqador dalillar*** *(faktlar).* Pozitivistlar tadqiqot jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan oddiy va alohida dalillarni (faktlarni) haqiqatan mavjud va to'g'ri deb hisoblaganlar. Biroq ayni vaqtda tarixchi tomonidan bunday dalillar (faktlar) dan tashqari murakkab jarayonlar, tizimlar ham tadqiqot jarayonida o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratmaganlar. Tarixchi esa makon va zamon hamda vaqt chegaralarini va me'yorlarini hisobga olgan holda murakkab dalillarning sifatini aniqlaydi.

Har qanday tarixiy dalil (fakt) ayni vaqtda boshqa dalillar (faktlar) tizimi tarkibida va ayni vaqtda ular bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Dalillar (faktlar) tizimi ko'p ma'nolidir. Shuning uchun ham tarixchilar ayni bir dalillar (faktlar) dan tarixiy voqelikni turlicha tasavvur qilishlari mumkin. Tarixchilar tarixiy voqelikni turlicha tasavvur qilsalarda, biroq dalil (fakt) ning haqiqiy mazmuni o'z ob'ektivligini saqlab qoladi. Tarixiy dalillar (faktlar) alohida tarixiy voqelik darajasida takrorlanmasdir, biroq jamiyat tizimi taraqqiyoti jarayonida mazmunan va mohiyatan takrorlanishi mumkin.

***Tarixiy manbalar dalillari*** *(faktlari, ma'lumotlari)**.*** Tarixiy manbalarning tarixiy voqelik haqida nechog'lik haqqoniy va ob'ektiv ma'lumot bera olishi hamda bu tarixiy manbaning tarixiy voqelikka nisbatan ma'lumotlarining imkoniyatlari darajasini tarixchi aniqlab berishi mumkin. Bunda germenevtika, ya'ni manbalar va dalillarni (faktlarni) tushuntirib berish, sharhlab berish, talqin qilish muhim o'rin tutadi. Manbalar ma'lumotlaridagi sub'ektivlik va to'qima ma'lumotlarni (hayoliy ma'lumotlar) aniqlash va ularni tarixiy tadqiqotlarda asosiy o'ringa qo'ymaslik, ularga asoslanib qolmaslik va ularning shunday jihatlarini aniqlab berish manbashunoslik fanining vazifalaridan biridir.

***Tarixiy-ilmiy dalillar*** *(faktlar).* Bunday dalillar (faktlar) tarixchining o'zi tomonidan shakllantiriladi. Biroq bu dalillar (faktlar) tarixiy manbadan alohida ajratib olingan dalil (fakt) ning o'zigina bo'lib qolmasdan, M.Bargning fikricha ular "mohiyatan tizimlashtirilgan", ya'ni tarixiy nazariyaning mahsuli sifatida shakllantirilgan dalillardir. Aniqlangan dalillar (faktlar)ning majmui yoki jamlanmasi qo'yilgan muammoning yechimini topishda va aniqlashda aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim. Dalillar (faktlar) ning aniqligini ta'minlovchi asosiy tamoyillardan biri dalilar (faktlar) ning tizimliligidir. Bunda dalillar (faktlar) ning nafaqat jamlanmasi, balki ularning o'zaro bog'liqligi mazmunan yaxlitligi jihatidan tizimliligi muhim ahamiyat kasb etadi. *Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarning yetishmasligi va bo'shliqlarni esa mavhum ma'nodagi nazariy tahlil to'ldirishi mumkin.*

**Nazorat savollari:**

1. Axborotning nazariy manba sifatidagi o'rni?
2. Manbaning axborot tashuvchi ekanligi?
3. Axborot nima?
4. Yaqqol va yashirin axborot nima?
5. Belgilangan va belgilanmagan axborot nima?
6 Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi nima?
7 Ilk manba qanday manba?
8. Birinchi axborot nima?
9. Manba axborotining tugallanmasligi?
10. Manbalar mazmuniga sistemali( tizimli) yondoshuv?
11. Manbaning matni nima?
12. Asosiy manbalar qanday manbalar?
13. Qo'shimcha manbalar qanday manbalar?
14. Tarixchining manbalardan tashqari bilimi?
15 Dalillarni o'rganishda tizimli yondashuvni nima?
16 I.Kovalchenko tomonidan taklif etilgan dalillarning darajalari haqida ma'lumot bering.
17 Tarixiy voqelikka aloqador dalilar qanday dalillar?
18 Tarixiy manbalardagi dalillar qanday dalillar?

19 Tarixiy-ilmiy dalilar qanday dalillar?

## MAVZUNI MUSTAHKAMLASh BO‘YIChA SAVOLLAR:
**(savolga mos javobni aniqlang)**

| t/r | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| **1** | ... - qachondir bo‘lib o‘tgan, sodir bo‘lgan holat | voqea |
| **2** | **...** dalillarni uchta darajaga bo‘ladi | I.Kovalchenko |
| **3** | ... – dunyoda sodir bo‘lgan turli hodisalarning tasviridir. | axborot |
| **4** | ... 1955 yilda har qanday oddiy dalillar o‘z tarkibida ko‘plab mayda va oddiy dalillarni ifodalaydi, degan fikr bildirdi | K.Bekker |
| **5** | ... ikki tomonlama axborot tashuvchi xususiyatiga ega hisoblanadi. | manba |
| **6** | ... ning qarashicha, fanning dalillari – bu fikr va mulohazalar tizimi bo‘lsa, umumlashtirish – mulohazalar haqidagi mulohazalardir. | F.Pauik |

## MAVZU BO‘YIChA TEST:

1. **Qachondan boshlab klassik manbashunoslikda manbalarga o‘tmishning xaqiqiy guvohi sifatida munosabatda bo‘lingan va xattoki unga ta’zim qilingan?**
   A. XIXasrning birinchi yarmidan
   V. XVIII asrning oxirlaridan
   S. XXasrning boshlaridan
2. **Qaysi yo‘nalish vakillari tarixni ijobiy fanlar qatoriga ko‘tarish maqsadida harakat qiladilar?**
   A. Neokantchilar
   V. Pozitivistlar
   S. Antistsientistlar
3. **Qaysi yo‘nalish vakillari tarixchidan hujjatlar ichidagi dalillarni ajratib olishni asosiy vazifa sifatida ko‘rsatadilar?**
   A. Neokantchilar
   V. Pozitivistlar
   S. Antissientistlar
4. **“Hujjat yo‘q bo‘lsa,tarix ham mavjud emas”, - g‘oyasini kimlar ilgari surdilar?**
   A. Neokantchilar
   V. Pozitivistlar
   S. Antistsientistlar
5. **Tarixda nima sababdan empirizm vujudga keldi?**
   A. Tarixchiga faktlarning qayd etuvchisi deb qaralgani uchun.
   V. Dalillarning ilohiylashtirilganligi uchun.
   S. Nazariyaga yetarli baho berilmaganligi uchun.
7. **.... ning fikricha manbaning yuzaga kelishi jarayonining o‘zi axborotlashish va axborotlashtirish jarayonidir?**
   A. I.Kovalchenko
   V. B.E.Topolskiy
   S. S.Yu.Lotman
8. **Manbalarning eng qimmatlisi qanday manbalar?**
   A. Statistik manbalar
   V. To‘g‘ri manbalar
   S. Birlamchi manbalar
9. **E.Topolskiy manbalarni qanday guruhlarga bo‘ladi?**
   A. Birlamchi va ikkilamchi manbalarga

V. Qayd etilgan va kayd etilmagan manbalarga
S. To‘g‘ri va egri manbalarga

**10. Axborot asosan qaysi holatda ko‘p uchraydi?**
A. Yashirin holatda
V. Ochiq ifodalangan holatda
S. Qayd etilgan holatda

**11. Tarix fanning dalillari – bu fikr va mulohazalar tizimi bo‘lsa, umumlashtirish – mulohazalar haqidagi mulohazalardir.**
**Mazkur fikrlar kimga tegishli?**
**A.** F.Pauik
**V.** E.Topolskiy
**S.** K.Bekker

**12. ................... tarixiy dalilarni o‘zgaruvchan yaxlit tizim sifatida o‘rganib, bu tizim doimiy ravishda o‘zgarib va yangilanib turadi, dunyoqarashlar kengayib borgani sayin dalil orqali voqelik mohiyatining yangi qirralari ochilib borishi muqarrardir, degan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.**
**A.** F.Pauik
**V.** E.Topolskiy
**S.** K.Bekker

### Adabiyotlar


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’anviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
9. Ilhomov Z. Abu Rayhon Beruni va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari. Tarix, ta’lim va xotira. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.TDPU. 2015. 151-155-bb
10. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi (tarixiy bilish, tarixiy ong va tarixiy xotira). T.TDPU. 2015.
11. Ilkhamov Z.A. The Logical Theory of Evidence-Based Interpretation (scientific source analysis). Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol 10 No 1 (2020)
12. Rajabov R va boshq. Tarix fani metodologiyasi (darslik). Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2018.
13. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. Toshkent, “Istiqlol”. 2013.
14. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.I. Istoricheskoe soznanie. T.:

“O‘zbekiston”. 2008.
15. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T.II. Fenomen djadidizma. T.: “O‘zbekiston”. 2009.
16. Ilhomov Z. Sharq tarix falsafasi haqida muloxazalar. Ilk o‘zbek davlatchiligi tarixi. Respublika ilmiy konferensiyasi. T. 2010 y
17. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent, TDPU rizografi. 2013.
18. Ilhomov Z.A., R.Mulladjanova Zamonaviy tarix fanining ayrim nazariy masalalari (konsepsiyalar, nazariyalar va ilmiy qarashlar). Tarix fani metodologiyasi va tarix ta’limining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Navoiy sh. NavDPI. 2019. 31-34-bb

# 5-mavzu. DAVLATChILIKNING NAZARIY MASALALARI: TUShUNChALAR, DAVRLAShTIRISh, ShAKLLANISh VA TARAQQIYoT NAZARIYaLARI.

**Reja:**

1. Davlatchilik tushunchasi va belgilari.
2. Davlatchilikning shakllanishi: sivilizatsion yondashuv.
3. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari.
4. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlarning tipologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Davlatchilik, davlat**,** tashkilot, jamiyat, boshqaruv, boshqaruv apparati, boshqaruv shakllari, hokimiyat, suverenitet, xalqaro munsabatlar, xuquqiy munosabatlar, qonun.

## 1. Davlatchilik tushunchasi va belgilari.

**“Davlatchilik” so‘zi ostida qanday tushuncha yotadi,** bu haqda bir qator mutaxassislarning turlicha yondashuvlari va izohlarini ko‘rish mumkin.

**“Davlat”** so‘zi lotincha **“status”** – *holat* (*polojenie*-rus t.) tushunchasini anglatadi. Lotincha “status” jumlasi italyan tilida “stato”, ispan tilida “esado”, nemis tilida “staat”, ingliz tilida esa “state” tarzida talaffuz qilinadi va bu barcha tushunchalarning ostida jamiyatni boshqarish, uning siyosiy hayotini tashkil qilishning boshlanishidagi holat tushunchalari kabi yagona umumiylik yotadi[20].

---

[20] Ушбу маъруза матнини тайёрлашда Э.Ртвеладзэ ва А.Саидовларнинг “Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития)” номли мақоласидан фойдаланилди. Қаранг: Ртвеладзэ Э., Саидов А. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 3-30.

Davlat haqidagi, uning boshqaruv vazifalari va davlatning boshqaruvdagi suverenligi kabi to‘laqonli tushunchalar XVI-XVII asrlarda to‘liq shakllandi.

Shu o‘rinda bu sohaning ayrim mutaxassilarining fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli, xususan, XX asr tadqiqotchilaridan biri F.Xayek davlatchilik tushunchasini tushuntirishda davlat apparati (boshqaruv organlari) tushunchasi bilan izohlab beradi[21].

Fransuz olimlari B.Badi va P.Biribumalar esa davlatchilik tushunchasini “fuqarolik amaldorlari hamda qurolli kuchlarga ega bo‘lgan xizmatchilarning mukammal tashkil etilgan hokimiyat mashinasi” sifatida izohlaydi[22].

Boshqa bir tadqiqotchi J.Xellouellning fikricha, davlatchilik tushunchasi ostida davlat - insoniylik xislatlarini yuksaltirish, insonlarning jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi ijodiy erkinligini ta’minlash, ayni vaqtda jamiyat hayotiga xavf soluvchi yovuzliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rishga xizmat qiluvchi tashkilot sifatida ta’riflaydi[23].

A.S.Axiezerning ta’kidlashicha, davlat – jamiyat orasidan boshqaruvni ta’minlash uchun ixtisoslashib chiqqan va pirovard natijada professional boshqaruv darajasiga erishgan boshqaruv apparatidir[24].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning bir-biridan mustaqil tarzda bildirgan fikrlaridan ko‘rish mumkinki, davlatchilik tushunchasi ko‘pqirrali va ko‘p tomonlama funksiyaviy tushunchalarni anglatishi mutaxassilar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

Tushunish mumkinki, davlat o‘z-o‘zini boshqaruvchi va taraqqiy etib boruvchi tizimlarga va tuzilishlarga ega va shu sohalarni tasarruf etuvchi tashkilot sifatida ko‘rsatilsada, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, “fanda yoki uning alohida ayrim bir sohalarida (yoki fanning ayrim holatdagi taraqiy etgan bosqichida) davlatchilik tushunchasiga hozircha to‘laqonli aniqlik shakllanmagan”, degan qarashlar ham yo‘q emas[25].

Shu o‘rinda davlatchilik sohasida tadqiqotlar olib borgan mutaxassislarning davlatchilik tushunchasi va unga aloqador xususiyatlar borasidagi bildirgan xulosaviy fikrlari ham mvjudki, bu aloqadorlik va xususiyatlar davlatlarning qanday tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligi, qanday boshqaruv shakllarini amaliyotdan o‘tkazganligi va qolversa, insonlar ongida

---

[21] Хайек Ф. Общество свободных. Сдерживание власти и развенчание политики // Откритая политика. 1995. №8. С.41; Қаранг: Ртвеладзэ Э., Саидов А. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 3

[22] Бади Б., Бирибума П. Переосмыслениесоциологии государство // Международный журнал социальных наук. 1994. №4, С.17; Қаранг: Ртвеладзэ Э., Саидов А. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 3

[23] Хэллоуэлл Ж. Моральные основы демократии. М.1993. С.114; Қаранг: Ртвеладзэ Э., Саидов А. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 4

[24] Ахиезэр А.С. Синретизм или либерализм // Рубежи. 1995. №4. С.71; Қаранг: Ртвеладзэ Э., Саидов А. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 4

[25] Белков П.Л. Ранее государство, предгосударство, протогосударство: игра и термины // Ранее формы политической организации: от первобытности к государственнсти. М. 1995. С.197. Қаранг: Э.Ртвеладзэ. А.Саидов. Теоретические вопросы государственности (понятийность, периодизаци и теори возникновения и развития) / Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Институт истории АН РУз. Д.А.Алимова. –Т.: Издательство “Navro’z”, 2018. Стр. 4.

bu davlatlarga nisbatan qanday qarashlar shakllanganligidan qat'iy nazar ularning barchasi uchun xos, deb ko'rsatiladi, xususan,

**Birinchidan**, davlat o'z fuqarolarining jamoaviy hududiy yaxlitligi, bir butunligiga asoslanadi. Hududiy (territorial) yaxlitlik yoki bir butunlik davlatlarning boshqa bir davlatlardan alohida bo'lgan hududlarining chegaralarini, davlat boshqaruv organlarining shakllanishi va tartiblarini, ularning vazifalari va funksiyalarini alohida, o'ziga xos ekanligini belgilab beradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, hudud yoki hududiy yaxlitlikning o'zigina davlatning belgisi sifatida xizmat qilmaydi, balki, undagi aholining aynan shu hududga taalluqli ekanligi, shu hududda barcha tarixiy davrlarda yashab kelayotganligi shu aholi yoki fuqarolarning ayni davlatga tegishli ekanligini belgilab beradi.

**Ikkinchidan**, davlat – maxsus ommaviy hokimiyat boshqaruv tashkiloti bo'lib, siyosiy xarakterga ega bo'ladi. Siyosiy hokimiyat ibtidoiy jamoa tuzumidagi jamoaviy hokimiyatdan farqli ravishda birinchi navbatda jamiyatning alohida bir qismining yoki ijtimoiy guruhlarning va sinflarning korporativ manfaatlari va qiziqishlarini aks ettiradi.

**Uchinchidan**, siyosiy hokimiyatni ifodalovchi ko'p sonli davlat apparati ishini tashkil etish hamda xizmatchilarining ta'minoti uchun soliqlar, yig'imlar va turli to'lovlarning mavjudligi. Shuning uchun soliq (moliyaviy xizmatlar) xizmati har qanday davlatning eng muhim funksiyalaridan biri sanaladi.

**To'rtinchidan**, suverenitet, ya'ni davlatga xos bo'lgan o'z hududiy birligida oliy hokimiyatni amalga oshirishi va xalqaro munsabatlarda mustaqil bo'lishi.

**Beshinchidan**, davlat xuquqiy munosabatlar va qonunlarsiz mavjud bo'lmaydi, shuning uchun davlatning qonun ijodkorligi ham muhim o'rin tutadi.

Demak, bu ko'rsatib o'tilgan zaruriyatlar yoki shartlar davlatlaning har qanday holatdagi shakllanishi va rivojlanishi, uning taraqqiyot darajasi va boshqaruv shaklidan qat'iy nazar barchasi uchun xos bo'lgan omillar sanaladi[26].

***Davlat tushunchasi: moxiyati, belgilari, tiplari, shakllari, funksiyalari*** "Davlat" tushunchasi keng ma'noga ega. Bu tushuncha to'risida olimlar uzoq vaqtlardan buyon baxslashib kelishadi. Jahon tarixshunosligida ilk davlatlarning shakllanishi borasida ko'plab nazariyalar mavjud:

- davlatlar mulkiy tabaqalanish mahsuli bo'lib, uning kurtaklari qadimgi jamoalar davrida paydo bo'lgan (Qadimgi Sharq);
- rivojlangan jamoalarda sinfiy differensiya va davlatchilik bo'lgan èki harbiylashgan jamoalar bosqinidan o'zlarini himoya qilish yo'lida himoya vositalari va davlat boshqaruv tizimini rivojlantirib borgan, aks holda varvarlar hujumining qurboniga aylangan. Bu holatda rivojlangan jamoa uchun davlatchilik ikkilamchi, urug' jamoa tuzumi darajasida bo'lgan xalqlar uchun davlatchilik birlamchi hisoblanadi (V-VI asrlarda Rim imperiyasining Varvarlar tomonidan bosib olinishi);
- sinfiy differensiyasiz jamiyatda davlatlarning paydo bo'lishi (Shan-In, Maya, Inklar, Asteklar - Kolumbgacha bo'lgan Amerika xalqlari). Bu xalqlarda yerga egalik qilish, jamoa mulki yoki sinfiy stratifikatsiya sezilmaydi. Avval primitiv davlatlarning shakllanishi va keyin esa sinflarning shakllanishi yuz bergan;
- to'rtinchi holatda sinfiy differensiya va davlatchilik bir vaqtda shakllanadi. Albatta, bu jamoada davlatchilik qo'shni xalqlarning - davlatlarning ta'sirida (Attika) paydo bo'ladi[27].

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, davlatchilikning shakllanishini bir qolipga solib bo'lmaydi[28].

---

[26] **Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 5-6.**

[27] **Илюшечкин В.П. Теория стадийного развития общества. - М.,1996. - С. 294-296.**

[28] Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. (Бақтрия мисолида).Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд. 2009. 3-4-бетлар.

**Davlat belgilari jadvali**

Davlatning moxiyatini tushunishda uchta asosiy nazariy yondashuv mavjudligi haqida ham adabiyotlarda qarashlar mavjud: ***ijtimoiy, sinfiy*** va ***siyosiy-xuquqiy.*** Birinchi yondashuvga ko'ra davlat xukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi, ikkinchi yondashuv bo'ycha ko'radigan bo'lsak, davlat ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, sinflarning paydo bo'lishi bilan xukmron sinfning quroli sifatida unga qarshi kurashish uchun maydonga chiqqan. Uchinchi yondashuvda, davlat jamiyatning va o'zining xayotini tashkil etuvchi xuquq manbaidir. Davlatning iqtisodiy soxadagi mohiyati ishlab chiqarish vositalariga egalikni bildirsa, siyosiy hukmronlik butun axolini davlat apparati va muayyan qonunlar yordamida davlat boshqaruvini amalga oshirishdan iboratdir[29].

## 2. Davlatchilikning kelib chiqishi: sivilizatsion yondashuv

Davlatchilikning kelib chiqishi masalasi – tarix va yuridik fanlari sohalarida bugungi kungacha eng munozarali masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Davlatchilikning yuzaga kelishi va paydo bo'lishini tushuntirib berishga asoslangan juda ko'plab nazariyalar mavjud. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, alohida bir mazmundagi nazariy yondashuvlarda ham davlatchilining shakllanishi borasidagi bir-biridan farqlanuvchi fikrlarni kuzatish mumkin, buning sababi o'rganilayotgan masalalar vaqt nuqtai nazaridan juda uzoq davrlar avval sodir bo'lgan va birinchidan bu jarayonlarni ilmiy modellashtirishning imkoni nihyatda kam bo'lsa, ikkinchidan bu modellashtirishlar mutaxassilar tomonidan juda ham ishonarli tarzda qabul qilinmasligi tabiiy.

O'zbekistonda ham davlatchilik jahonning boshqa hududlarida bo'lganidek, insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarida shakllana boshladi. Tarix fanidagi so'nggi ma'lumotlarga asoslanib aytiladigan bo'lsa, zamonaviy odamlarning ajdodi bo'lgan kramanon odami bunda 40 ming yillar avval yashagan bo'lsa, eng dastlabki davlatlar bundan 5 ming yillar avval, ya'ni, miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar chegarasida paydo bo'lganligini ko'rish mumkin. *Davlatchilikning kelib chiqishida sivilizatsion yondashuv* tarafdorlarining qarashlaricha, davlatchilikning insoniyat tomonidan "ixtiro" qilinganligiga unchalik ham ko'p vaqt o'tgani yo'q, ya'ni, insoniyat o'zining ongli hayotining nisbatan juda katta qismini davlatchilikka asoslangan jamiyat boshqaruvidan holi o'tkazgan[30].

Bir necha ming yillar, asrlar va xatoki o'n yilliklar avvalgi davlatchilik hozirgi mavjud davlatchilikdan ma'lum darajada farqlangan, shundan kelib chiqqan holda ko'pincha davlatchilikning taraqqiyoti masalasi haqida so'z yuritilganda "davlat tipi" tushunchasi haqidagi tushunchaga ko'proq urg'u beriladi.

*Davlat tipi* – umumiy belgilariga asosan va ichki tuzilish mohiyatini aks ettiruvchi boshqaruvni anglatadi.

Davlat va xuquq nazariyasida davlatni tiplarga ajratishda yagona yondashuv yo'q. Tiplarini shartli ravishda kuyidagilarga bo'lish mumkin:

Sovet davri ijtimoiy fanlarida davlatchilik masalalari hamda uning tarixi va taraqqiyoti masalalarida davlat va jamiyat taraqqiyotining formatsion yondashuvi tushunchasi yetakchi mavqega ega bo'ldi. Biroq bu yondashuvda bir qator xatoliklarga yo'l qo'yildiki, ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi:

***Birinchidan***, davlatchilikning bir tipi ikkinchisiga mexanik ravishda o'z o'rnini bo'shatib beradi, degan bir tomonlama yondashuvning ustunligi;

***Ikkinchidan,*** quldorlik davlati, feodal davlat, sotsialistik davlat tiplari sifatida davlat shakllarini, ya'ni formalarini aniqlab berldi, dekan davlatchilik taraqqiyoti tarixi jarayonida

---

[29] Саидов А., У.Таджиханов, Х.Одилқориев, Давлат ва ҳуқуқ асослари.Тошкент, "Шарқ". 2002. 11-бет.

[30] Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 6.

ko'rindiki, barcha davlatlar va davlatchilik jarayonlari ham bu formatsiyaga har doim ham mos kelavermaydi;

***Uchinchidan,*** Osiyocha ishlab chiqarish usuli inkor qilindi;

***To'rtinchidan,*** ma'naviy omillarga yetarli darajada baho berilmadi va davlatchilikdagi ularning o'rni va ta'siri inobatga olinmadi;

***Beshinchidan,*** Sotsialistik davlat tipini eng oliy davlat tipi sifatida yetakchi mavqeda baholovchi apologetik[31] yondashuv yetakchilik qildi.

***Davlat tiplari jadvali***

Hozirgi vaqtda *davlatchilikning tipologiyalashtirish masalasida sivilizatsion yondashuv* katta ahamiyat kasb etmoqda.

*Sivilizatsion yondashuv asosini* "sivilizatsiya" – (*lotin civilis* – fuqaroviy (grajdanskiy) tushunchasi tashkil etadi. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiya tushunchasi jamiyatning taraqqiyoti darajasini belgilovchi tushuncha sifatida ma'lum.

Shu nuqtai nazardan sivilizatsion yondvashuvda davlatni tipologiyalashtirishning tashqi xususiyatlari emas, balki davlatning ichki funksiyaviy jihatlari asosiy o'ringa qo'yiladi.

Tarixni "sivilizatsiya" tushunchasi yordamida o'rganish ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) tomonidan uning 12 tomli "Postijenie istorii" (1934-1961) nomli kitobida ilgari surilgan. Toynbi barcha sivilizatsiyalarni milliy, diniy, geografik va boshqa jihatlariga qarab 21 ta sivilizatsiyaga bo'lib tahlil qiladi. Umuman turli olimlar tomonidan sivilizatsiyalar 15-20 tadan 30 tagacha ko'rsatiladi[32].

Umuman, davlatchilikni tipologiyalashtirish masalasida sivilizatsion yondashuvning xususiyati shundaki, bunda asosiy omillar sifatida jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, xalqning ma'anaviy taraqqiyoti darajasi, an'analari va milliy xarakter, mentalitet, mafkuraning xarakteri, geografik muhit va boshqalar asosiy o'rin tutadi[33].

***Davlatchilikning kelib chiqishidagi sivilizatsion yondashuv masalalariga xulosa sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir*:**

1. Davlat insoniyat hayotining barcha davrlarida ham, ya'ni har doim ham mavjud bo'lmagan (dastlabki davlat 5 ming yil avval tashkil topgan bo'lsa, undan avval ibtidoiy jamoa davri hukm surgan)
2. Davlatchilik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatining moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari va ehtiyojlari natijasi sifatida shakllandi.
3. Davlatchilik uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarning ma'lum bir alohida davrida shakllandi.
4. Davlatchilik bir qator omillarning ta'siri ostida shakllandi.
5. Davlatchilikning shakllanishi jarayoni – bu marta sodir bo'ladigan jarayon emas, balki bu jarayon davlatchilikning qaror topishi uchun zarur omillarning qaror topishigacha davom etadi. Shu nuqtai-nazardan turli xalqlar o'z davlatchiligiga turli tarixiy davrlarda, ya'ni biri avvalroq, boshqasi keyinroq erishgan.
6. Davlatchilikning shakllanishi omillari konkret-tarixiy sharoitda o'zini turlicha ko'rinishda namoyon etdi va har bir alohida konkret holatda o'zining maxsus xususiyatlariga ega bo'ldi.

---

[31] Апологетика - диний ибора бўлиб, айрим ҳолларда тарих фанида ҳам қўлланилади ва кўр-кўрона ҳимоя қилиш маъносида тарихий воқеаларнинг ва жараёнларнинг барчаси олдиндан белгиланган ва маълум қонуниятларга асосланган ҳолда содир бўлади деган теологик тушунча. Қаранг: Илҳомов З. Тарих фани методологияси. Тадқиқот усулбулари ва терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2013. 22-б

[32] Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 10.

[33] Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 9-10.да

7. Davlat jamiyat qiziqishlari va manfaatlarini ifodalagan holda jamiyat ustidan turuvchi kuch sifatida shakllandi[34].

Xulosa sifatida aytish kerakki, davlatchilikning shakllanishida sivilizatsion yondashuv ayni vaqtda shakllanish jarayonini kechirmoqda va ilmiy adabiyotlarda davldatning tiplarga bo‘linishi borasidagi yagona va tugal fikrlar batafsil o‘z aksini topgan emas.

### 3. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari.

O‘rta Osiyoda davlatchilik evolyusiyasini miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarmidan boshlab milodiy III – IV asrlargacha bo‘lgan vaqt orasida bir nechta davrlarga bo‘lish mumkin. O‘zbekiston hududlarida ilk davlatchilikning shakllanishi so‘nggi bronza davrida o‘troq-dehqonchilik madaniyati tarqalgan janubiy hududlarda sodir bo‘ldi. Bu jarayonning yakunlanishi shu vaqtda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan Kushonlar imperiyasi hamda Parfiya imperiyalarining yemirilishi davriga, ya’ni milodiy III asr birinchi yarmilariga to‘g‘ri keladi. Taxminan shu davrlarda Qang‘ davlati ham tugab bordi[35].

Mana shu oraliqda o‘tgan davrlarda O‘rta osiyo hududlarida davlatchilikning shakllanishi, kechishi va qaror topishi jarayonlari mutaxassislar tomonidan oltita davrga bo‘lib ko‘rsatiladi va ularning asosiy jihatlari ko‘rsatib beriladi.

**Birinchi davr** – miloddan avvalgi II mig yillik – O‘zbekistonning janubiy hududlarida protodavlatlarning, ya’ni ilk davlatlarning shakllanishi sodir bo‘ldi va davlatchilikning tuzilishi qaror topa boshladi. Davlatchilikning ilk ko‘rinishi Jarqo‘ton yodgorligida ko‘rinadi, ya’ni bunda mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’a va uning ichki qismida aholi yashash joylari, ibodatxona va ark saroyi mavjud.

**Ikkinchi davr** – miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan – miloddan avvalgi 539 yil – Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi tarixiy madaniy viloyatlarning shakllanishi, ularda davlatchilikning dastlabki shakllari bilan birga siyoisy hokimiyatning boshqaruv pog‘onlarani ham ko‘rish mumkin.

Bu holatni “Avesto”da keltirilgan ma’lumotlardan ham ko‘rish mumkinligi mutaxassislar tomonidan ko‘rsatib o‘tiladi, chunonchi, unda jamiyatning tarkibiy tuzilish sifatida namana (oila - uy), vis (urug‘, urug‘ga tegishli hudud), zantu (qabila yoki qabilaga tegishli hudud), daxyu (viloyat yoki davlat) sifatida ko‘rsatilsa, eng quyi boshqaruv amaldorlari pog‘onasidan boshlab viloyat yoki davlat hukmdori (daxyupati) va oliy hukmdorgacha (sastar) boshqaruv tizimi vakllari va ularing funksiyalari tavsiflab berilgan[36].

